

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**



“MUSIQA NAZARIYASI”
fanidan
MA'RUZALAR MATNI

Tuzuvchi: G'.M.Xudoyev

Toshkent - 2017

Birinchi bo'lim

Kirish

Musiqqa hamisha ma'lum musiqiy obrazlar orqali ochib beriladigan u yoki bu mazmunga ega bo'ladi. Bu tabiat manzaralari, ijtimoiy hayotdagi barcha davrdagi hodisa voqelik vaziyatlari, insonning xis tuyg'ulari bilan bog'liq ichki ma'naviy olamidir. Musiqqa insonning barcha xissiyoti, qayfiyatini obrazli ifodalash bilan birga, tabiat manzaralarini tasvirlash, harakat obrazlarini gavdalantirish, hayotning tabiiy ovozlari (kushlarning sayrashi, suvlarnig shildirashi)ga taklid kilishgaham mumkin.

Mavjud asarning anglash uni tushunish, musiqqa tilini bilish va to'g'ri baxolash malakasiga ega bilish uchun, tinglovchida dastlab, musiqani fikrlay olish qobiliyati shakllangan bo'lishi lozim.

Musiqqa xakidagi ta'lim tizimining boshlangich qismi - Musiqqa elementar nazariyasi - umuman musiqaning asosiy unsirlari (tovush, interval, lad, akkord, metr, ritm va x.k.) va ayniqsa kuyni o'rganish o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Mavjud musiqqa elementlari faqat bir biri bilan uyg'unlashib kelgandagina o'z ifodaviy xususiyatlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega.

1.1. Tovush. Tovushlarning xususiyatlari.

Tovush- fizik hodisa. Tovushning hosil bo'lishi bir qator fizik omillar natijasidir. Fizika olamida tovushining hosil bo'lishi albatta ikki hodisa natijasida vujudga keladi, ya'ni ikki qattik jismning o'zaro ta'siri natijasidagi harakat tovushni qosil qiladi. Tovush tushunchasi nisbiy bo'lib, uning paydo bo'lishi ta'sir etayotgan ikki jismlarning qattikligi, ogirligi(massasi)ga ta'sir kuchini darajasiga bog'liqdir. Ta'sir etayotgan kuchining qay darajada kuchililigi ayni paytda vujudga kelgan haraktning davomiylik chegarasini ham ta'minlaydi. Shu o'rinda Nyutonning jismlar harakatlanishiga asoslangan birinchi qonuni¹ muhim, ya'ni jismga kuch ta'sir etish natijasida u harakatga keladi. Jismga kuchning ta'siri yuqori bo'lsa, jism harakati tez va ko'p vaqt davomiylikka ega bo'ladi. Yuqoridagi fikrimiz $F=m*a$ formulasida ifoda etadi, F – ta'sir etayotgan kuch kattaligi, m –

¹ Ньютон-


jismning massasi, a – ta'sir natijasida harakatlanayotgan jism tezligi. Kuchning qattiqigi aynan jismning massa va tezlik kupaytmasiga teng.

Musiqada ikki jism o'zaro ta'siri natijasida tovushlar hosil bo'lishini nazarda tutsak, ta'sir etuvchi kuchning qattiqligi va tezligi tovushning eshitilish davomiyligini, vaqt chegarasini ta'minlaydi. Tovushning hosil bo'lishi fizik hodisa sifatida qaralib, inson uni eshitish organlari tomonidan qabul qilib oladi. Natijada nerv sistemasini orqali bosh miyaga o'tib, tovush sezgisini ko'zg'atadi. Demak, "tovush" so'zi ikki xil tushunchani ifodalaydi: 1) **fizik holatdagi** tovush: 2) **sezgi holatidagi** tovush. Inson qulog'i orqali xilma-xil tovushlarin eshitib idrok etish qobiliyatiga ega. Ammo, ularning hammasi ham musiqada qo'llanilavermaydi.

Taqqillash, g'irchillash, shivirlash, qarsillash kabi tabiiy tovushlar shovqinli² tovushlar tarkibiga kiradi Musiqada mavjud tovushlardan aynan *musqaviy tovushlardan foydalaniladi*. Mazkur musiqiy tovushlar tizimi aynan musiqiy fikr ifodalash va musiqiy obrazni tasvirlash uchun xizmat qiladi.


Musiqiy tovush hosil qilishni sun'iy deb olsak, uning paydo bo'lishi aynan musiqiy cholg'ularning ijrosidagi sadolanish natijasidir. Demak, tovushning hosil qilishda, ijrochi va cholg'u muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda tovushni paydo etish uchun vosita sifatida torli cholg'ulardan foydalanish mumkin. Tovush hosil qilish uchun unga kuch ta'siri ko'rsatiladi, torlarga kuch ta'siri natijasida havoda tulqinsimon tebranish yuzaga keladi. Bu tebranish tovush tulqini deb ataladi. Tovush to'liqini bir maromda aylana shaklida turli tomonga teng tarqaladi. Xuddiki, suvga biron jism tashlanganda markaziy aylana tulqinlar hosil bo'lgani kabi.

² "Shovqinli tovushlar musiqiy asarlarda ham qo'llaniladi. Masalan: doyra, nog'ra, baraban, tarelka, qoshiqtovushlari.




Yuqorida aytib oʻtganimizdek tovushning **balandligiga** tebranish tezligi bogʻliq boʻladi. Tebranish tezligi qay darajada jadal boʻlsa, tovush shuncha balandroq eshitiladi, yoki aksincha tebranish soni qancha kam boʻlsa, tovush shuncha past eshitiladi. Bu oʻrinda aynan tebranishning kenligi albatta taʼsir etayotgan kuchga bogʻliqligini taʼkidlash oʻrinlidir.

Musiqaviy tovushning fizik xususiyatlari



Tebranish kengligi (amplituda)da o'z aksini toptan harakatnint kuchi tovushga qattqlik beradi va natijada amplitudaning³ kengligini nazarda tutgan holda, tovush **qattqligi** oshadi, yana jarangi ortadi, Qanchalalik tebranish amplitudasi keng bo'lsa, jarangi shuncha baland eshitiladi. Tovush manbai tebranishning tezligi, kengligi va davomiyliigi bilan bog'liq. Tebranish davomiylik muddati tovushning **cho'zimini** belgilaydi. Demak, tebranishlar davomiylik muddati kuch ta'siridagi hosil bo'lgan amplituda kengligiga ham bog'liq bo'ladi. Kuch ta'siridagi tebranish kenligi qanchalik keng bo'lsa, tovush yangrash davomiyliigi, ya'ni cho'zimi ham uzayadi.

Amplituda




Tovush sifat xususiyatlaridan yana biri tembr⁴ bo'lib, tovushning rang barangligiga aytiladi. Har bir musiqiy tovush betakror o'ziga xos tembriga (musiqiy rangi)ga ega. Bundan inson ovozi ham mustasno emas. Tembr, yani musiqiy rang kabi ifodalanadi. Tovushning tembr xususiyatiga nisbatan izoh berishda xis-tuyg'ularga xos bo'lgan turli iboralar qo'llaniladi. Jumladan, mayin, keskin, yo'g'on, jarangdor, nozik, yoqimli va hokazo. Musiqa olamidagi qariyb barcha cholg'u va inson ovozi betakror **o'ziga xos** tembrga asoslanadi hamda ular o'zaro rang-barang tembr xususiyati bilan ajralib turadi. Yuqorida izohlangan tovushning barcha xususiyatlari (qattqlik, balandlik, cho'zim va tembr)ni o'zida mujassamlay olgan har bir tovush **musiqaviy tovush** deb aytiladi. Tovushlar ikki turuhga ajratiladi: 1) **musiqaviy** tovushlar; 2) **shovqinli** tovushlar

³ Amplituda- (lotim. Amplitudo-kenglik hajm) – tor va boshqa tebranuvchi jismning tebranish kengligi.

⁴ Tembr-(fr. Tembre – qo'ng'iroq, tamg'a, marka, ajratish belgisi, yun. Tempanon – doyra so'zidan) –o'ziga xos tusi, har bir musiqa cholg'usining yoki ashulachi ovoizining o'ziga xos tovush xarakteri.

Mavjud tovushlar har biri tovushga xos bo'lgan yuqori tonlar tarkibiga bog'liqdir.

Tovush manbai tebranishlarining tarkibi o'z o'rnida mayda to'lqinlarga ham bo'linadi. Ular bir vaqtning o'zida nafaqat butunligicha, balki bo'limlari bo'yicha ham tebranadi. Tovushning butunligicha tebranishi asosiy tebranish hisoblanib, eng yaxshi va aniq eshitiladigan tovushni hosil qiladi. Bu tovushga **asosiy ton** deb aytiladi. Har bir bo'lim (jismning umumiy uzunligidan teng yarimi, uch qismidan biri, to'rtidan biri, beshdan biri va h.k)ning tebranish tezligi o'ziga mos tovushni yaratadi.



Bunday qo'shimcha tovushlar asosiy tondan ko'ra ikki, uch martaga balandroq eshitiladi. Chunki, tovush manbaining uzunligi qancha qisqa bo'lsa, shunchalik uning tebranish tezligi oshadi va hosil bo'lgan tovushning balandligi ko'tariladi. Ushbu qo'shimcha, tarkibiy tonlar *oberton*⁵ yoki garmoniklar deb ataladi.

Obertonlar katori (Tabiiysoz)



⁵ *Oberton* – (нем. *Oberton*, *Ober-юқори*) yuqori ton demakdir. И.Ақбаров. Мусиқа луғати. Т.: 1987. 228 б.

Tovush tarkibiga kirgan obertonlar tovushning rang-barangligini, ya'ni **tembr** xususiyatini vujudga keltiradi. Tembr tovushning individual sifatini, boshqa tovushlarga o'xshamaydigan original ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur to'rtta xususiyat (**balandlik, qattiqik, cho'zim va tembr**) har bir musiqaviy tovushda albatta namoyon bo'ladi.

1.2.Musiqiy tizim. Tovushlarning harfiy tizimi. Asosiy pog'onalar va ularning nomlari.

Barcha musiqaviy tovushlar majmuasiga **musiqiy tizim** deb aytiladi. Tovushlarning o'z balandligi bo'yicha yuqori tomon yoki quyiga qarab birin-ketin joylashuvi **tovushqatorni** hosil qiladi. Tovushqatorning har bir tovushi uning **pog'onasi** deb aytilib, har bir pog'ona I (rim raqamida) raqami bilan ifodalanadi.

Musiqaviy tizim tovushqatorining pog'onalari asosiy va hosila pog'onalarga ajraladi. **Asosiy pog'onalar ettita** bo'lib, ular alohida nom bilan yuritiladi (do, re, mi, fa, sol, lya, si). Ushbu tovushlar lotin alifbosida quyidagicha ifodalanadi:

Pog'ona nomi	<i>Do</i>	<i>re</i>	<i>mi</i>	<i>Fa</i>	<i>sol</i>	<i>lya</i>	<i>Si</i>	<i>do</i>	<i>re</i>	<i>mi</i>	<i>fa</i>	<i>sol</i>	<i>lya</i>	<i>si</i>
Xarfiy belgisi	<i>S</i>	<i>D</i>	<i>YE</i>	<i>F</i>	<i>G</i>	<i>A</i>	<i>H</i>	<i>S</i>	<i>D</i>	<i>E</i>	<i>F</i>	<i>G</i>	<i>A</i>	<i>H</i>
Rakami	<i>I</i>	<i>II</i>	<i>II</i>	<i>IV</i>	<i>V</i>	<i>VI</i>	<i>VII</i>	<i>I</i>	<i>II</i>	<i>II</i>	<i>IV</i>	<i>V</i>	<i>VI</i>	<i>VII</i>


Yuqorida keltirilgan pog'onalar barcha tovushqatorni qamrab olib, takroriy davriylikni tashkil etadi. Bunday holat har sakkizinchi tovush asosiy tonning birinchi obertoni sifatida keladi (masalan: birinchi oktava do notasidan ikkinchi oktava do tovushigacha).

Birinchi oberton balandligi (tebranish tezligi) asosiy ton balandligidan ikki marta yuqori bo'lib, sadolanishi esa dastdabki asosiy ton bilan uyg'unlashib ketadi. Natijada, quyidagi davriylik paydo bo'ladi (Asosiy pog'onalar qatori oldindan belgilangan *Do* tovushdan boshlandi).

Tovushlarning bir xil nomdagi yetti pog‘ona orasidagi masofa **oktava**⁶ deyiladi. Shu bilan birga barcha yetti asosiy pog‘onalarni o‘z ichiga oladigan tovushqatorning qismi ham **oktava** deyiladi.

Musiqaviy tovushqatorlar yettita to‘liq va ikkita to‘liqsiz oktavani tashkil etadi.

To‘liq oktavalar – *subkontr oktava*, *kontr oktava*, *katta oktava*, *kichik oktava*, *birinchi oktava*, *ikkinchi oktava*, *uchinchi oktava*, *to‘rtinchi oktava*, *beshinchi oktava*; to‘liqsiz oktava – *subkontr oktava* (*uchta* tovushdan iborat) va *beshinchi oktava* (*bitta* tovushdan iborat).



Oktavalar fortepiano klaviaturasida joylashish tartibiga ko‘ra turli quyi, o‘rta va yuqori registrlarga⁷ ajratiladi. Vokal ijrochiligida registrlarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Xonandalarning ovoz imkoniyatlarga mos tarzda quyidagi registrlardan foydalaniladi. Aksariyat hollarda ayol xonandalarning soprano ovozi yuqori registrlar (birinchi, ikkinchi va uchinchi oktavalar)da, erkak xonandalarning ovozi esa bas, bariton va tenor ovozi, o‘rta va quyi registrlarda (subkontr kontr, katta va kichik oktavalar)da ifodalanadi.

Fortepiano cholg‘usida barcha musiqaviy tovushlar balandligiga binoan 88 ta bo‘lib, fortepiano yoki royal *klaviaturasi*⁸ da mujassamlashgan. Ularning asosiy pog‘onalari 52 ta oq klavish bilan ajratilgan bo‘lib, qora klavishlari esa 36 ta hosila pog‘onalarni tashkil qiladi.

⁶ Oktava – (lot. Oktava – sakkizinchi). I.Akbarov. Musiqa lug‘ati. T.: 1987. 239 b.

⁷ Registr (lot. Registrum-ro‘yxat, yozib qo‘yish) – baland (yuqori), o‘rta va past bo‘ladi.

⁸ *Klaviatura* - (nem. Klaviatur, lot. Clavis - kalit) – fortepiani, organ, akkordiondagi klavishlarning ma’lum bir tartibdagi yig‘indisi. I.Akbarov. Musiqa lug‘ati. T.: 1987. 155 b.


1.3. Nota yozuvi. Kalitlar. Alteratsiya belgilari

Nota yozuvi – musiqiy tovushlarining balandligi, uzunligi va boshqa xususiyatlarini ifodalovchi belgilardan iborat yozuv usuli bo‘lib, musiqiy yozuvda qo‘llaniladi. Nota yozuvi kadimdan turli xalqlar musiqa amaliyoti va ilmiy izlanishlarning mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Nota yozuvining asosiy unsirlari (elementlari) – nota yo‘li, notalar va kalitlardir.

Nota yo‘li hozirgi kunda dunyo musiqa amaliyotida qo‘llaniladigan nota yozuvi yagona standartlarga asoslangan. Musiqiy tovushlar notalar⁹ vositasida yoziladi. Ular aylana, doira va bu shakllariga tayoqcha va qo‘shimcha bayroqchalar qo‘shilishidan iboratdir. Ularning belgilanishi, cho‘zimlar ajratilishi vertikal *tayoqchalar (shtillar)*, *bayroqchalar*, qisqa cho‘zimli tovushlarni bir guruhga birlashtirish uchun esa *qovurg‘achalar* - qo‘shimcha vertikal chiziqchalar bilan izohlanadi.



Tovushlar balandligi beshta parallel chiziqlarda ko‘rsatiladi. Bu parallel chiziqlar **nota yo‘llari** deb aytiladi.



Notalar chiziqlarning o‘zida, chiziqlar orasida, shuningdek, 5-chiziqning ustiga va 1-chiziqning ostiga yoziladi. Nota yo‘lining boshlanish qismida besh chiziqni birlashtiruvchi vertikal chiziq qo‘yilib, bu **takt chizig‘i** deb ataladi. Bu vertikal chiziq *boshlang‘ich chiziq* bo‘lib, asosiy chiziqlar tartibi pastdan yuqoriga tomon sanaladi.



Nota yo‘lining chiziqlariga va ularning oralariga yozilgan notalar tovushqatorning asosiy pog‘onalariga mos keladi.

⁹ Нота (лотин. нота.) музика асарларини ёзиб олиш учун қўлланиладиган ёзув белгиси. Маданият ва санъат атамаларининг изоҳли луғати. Т.: 2015. 147 б.

Baland va past tovushlarni yozish uchun nota yo‘lining ustida (yuqorigi yordamchi chiziqlar) va ostida (pastki yordamchi chiziqlar) qisqa yordamchi chiziqlar qo‘llaniladi. Yordamchi chiziqlardan nota yo‘lining asosiy chiziqlari kabi foydalaniladi, ya’ni notalar yordamchi chiziqlarning o‘ziga va ularning oralig‘iga yoziladi. Yordamchi chiziqlarning soni asosiy chiziqlar yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladi.



Nota yo‘lida yozilgan notalar, tovushlar qaysi yo‘nalishda harakat kilayotganligini va bir-biridan qanday masofada o‘zoqlashayotganligini aniq ko‘rsatsa-da, tovushlarning aniq balandligini ifoda etmaydi (uni balandligini chiziq boshida qo‘yilgan kalit aniqlaydi).



Kuo‘rsatilgan balandlikdagi tovushlar birinchi oktava oralig‘ida joylashgan bo‘lib, notalar bu chiziqlar o‘zida, chiziqlar orasida, ustida va ostida mavjud cho‘zimlarga asoslanib, guruh kovurg‘achalari bilan ham ifodalangan.


Notalar yozuvida asosiy chiziqlardan tashqari, ayrim notalar uchun qisqa qo‘shimcha chiziqlar ham ishlatiladi. Ular nota yo‘lining qo‘shimcha chiziqlarida ostiga va ustiga ham yoziladi.



Notalar turli guruhlarga birlashtirilganda tayoqcha va kovurg'achalarni yozish uchun qulay o'rinlar tanlanadi. Bunda iloji boricha ularni nota yo'lining o'rta qismiga yozishga harakat kilish maqsadga muvofiq.



Kalitlar. Nota yo'larida qariyb barcha balandlikdagi tovushlarni aniq balandligini ifodalashda kalitlar muhim o'rin tutadi. Kalit deb – nota yo'lining har bir chizig'ida yozilgan notalar balandligini qamrab oluvchi belgiga aytiladi. Bugungi kungacha kalitlarning uch turidan foydalaniladi: **Sol** kaliti (skripka yoki soprano kaliti ham deyiladi) - birinchi oktavada ikkinchi chiziqda joylashgan **sol** tovushini ifodalaydi.



Fa kaliti (bas kaliti) - kichik oktavada *fa* tovush notasi to'rtinchi chiziqda yoziladi:



Do kaliti (alt va tenor kalitlari) - birinchi oktavada *do* tovush notasi uchinchi va to'rtinchi chiziqda yozilishini ko'rsatib turadi.




Ma'lum bo'lmoqdaki, yuqorida ko'rsatilgan kalit belgilari asosida tovushlarning balandligini kalit turiga qarab belgilanadi.

Zamonaviy nota yozuvi tizimida *sol* va *fa* kalitlari asosiy ahamiyatga ega bo'lib qoldi.

a) *Skripka kaliti*


O'rta va yuqori registrdagi tovushlarni yozish uchun yumaloq aylanmasi ikkinchi chiziqni o'rab turuvchi *sol* kalitidan foydalaniladi. Skripka tovushlarining hajmiga muvofiq keluvchi notalar qulay joylashganligi sababli, bu kalit skripka nomini olgan.



Sol kaliti yozilgan ikkinchi chiziq birinchi oktavaning *sol* tovushi balandligiga muvofiq keladi. Skripka kaliti yozilgan nota yo'lining chiziqlarida tovushlar quyidagicha joylashadi:



Skripka kalitida qo'shimcha chiziqlar quyidagi tovushlarning balandligini ko'rsatadi:



b) *bas kaliti*



Fa kaliti ham asosiy beshta nota yo'lini qamrab oladi va aynan kichik oktava fa tovushi balandligini ifodalaydi.

Asosiy cho'zimlar. Tovush cho'zimlarining yozilishi quyidagicha:

- 1) Eng katta cho'zimli tovush – butun nota 1i, 2i, Zi, 4i sanoq davomiyligiga ega;



- 2) Butun cho'zimning teng yarmi – yarimtalik nota (1/2) 1i, 2i sanok davomiyligiga ega;



- 3) Yarimtalik notaning ikki marta qisqartirilgani - chorak nota ($1/4$) 1i sanoq davomiyligiga ega;



- 4) Choraktalik notaning 2 marta qisqartirilgani – nimchorak nota ($1/8$) yoki sakkiztalik nota 1 yoki I sanoq davomiyligiga ega;



- 5) Nimchoraktalik notaning ikki marta qisqartirilgani – o‘n oltitalik nota ($1/16$) 1 yoki I sanog‘ida ikkita o‘n oltitalik nota to‘g‘ri keladi;



- 6) O‘n oltitalik notaning ikki marta qisqartirilgani – o‘ttiz ikkitalik nota ($1/32$) 1 yoki I sanog‘iga ikkitadan o‘ttiz ikkitalik nota to‘g‘ri keladi;





- 7) O‘ttiz ikkitalik notaning ikki marta qisqartirilgani – oltmish to‘rttalik nota ($1/64$) va x.k.



Bu kabi cho‘zimlar aksariyati cholg‘u ijrochiligida keng qo‘llaniladi.

CHO‘zimlarni uzaytiruvchi qo‘shimcha belgilar. Musiqada asosiy cho‘zimlardan tashqari tovushlar cho‘zimini uzaytiruvchi qo‘shimcha belgilardan keng foydalaniladi. Bunday belgilar notaning o‘ng tomoniga qo‘yiladi: 1) *nuqta*–ma’lum cho‘zimni teng yarmiga uzaytiradi,
Qo‘shimcha belgilarga quyidagilar kiradi:

a) **nuqta** - asosiy choʻzimni yarim baravar oʻzaytiradi, bu belgi mavjud notaning oʻng tomonidan qoʻyiladi:





ayni paytda uchta choraktalik choʻzimni ifodalaydi bu yerda uchta nim chorak notalar choʻzimiga teng





b) **ikki nuqta** - biror tovush choʻzimini yarim baravar va uning asosiy choʻzimidan yana chorak baravar oʻzaytiradi:



$$\begin{aligned}
 \text{O} &= \text{O} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J} &= \text{J} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J} &= \text{J} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J} &= \text{J} + \text{J}
 \end{aligned}$$



$$\begin{aligned}
 \text{O} \cdot &= \text{O} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J} \cdot &= \text{J} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J} \cdot &= \text{J} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J} \cdot &= \text{J} + \text{J}
 \end{aligned}$$



$$\begin{aligned}
 \text{O} \cdot &= \text{O} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J} \cdot &= \text{J} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J} \cdot &= \text{J} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J} \cdot &= \text{J} + \text{J}
 \end{aligned}$$



$$\begin{aligned}
 \text{O.} &= \text{O} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J.} &= \text{J} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J.} &= \text{J} + \text{J} + \text{J} \\
 \text{J.} &= \text{J} + \text{J}
 \end{aligned}$$

2)**liga**¹⁰ – yonma-yon turgan bir xil balandlikdagi notalar cho‘zimi yig‘indisidan iborat bo‘lib, egri yoy chiziq bilan birlashtiradi:








3) **fermata** - nota ustidan yoki ostidan qo‘yiladigan belgi. Fermata – tovush cho‘zimining musiqiy asar dramaturgiyasi va kuy harakteri xususiyatlariga binoan ma’lum vaqtga davomi etishini ko‘rsatadi. Fermato-o‘rtasiga nuqta qo‘yilgan kichik yarim doira shaklida nota ustiga yoki ostiga qo‘yiladi:

¹⁰ Liga - (eski italiyancha liga) - aloqa, bog‘liqlik.





Pauzalar. Tovush yangrashining ma'lum vaqt to'xtalishi **pauza** deyiladi. Tovush qanday cho'zimlarga ega bo'lsa, pauzalar davomiyligi ham shunday ifodalanadi. Ular quyidagicha izohlanadi:


- 1) Butun nota cho'zimiga teng keladigan butun pauzaning yozilishi;






2) Yarimtalik nota cho‘zimiga teng keladigan yarimtalik pauzaning yozilishi.




3) Choraktalik nota cho‘zimiga teng keladigan choraktalik pauzaning yozilishi.






4) Nimchoraktalik nota cho‘zimiga teng keladigan pauzaning yozilishi.



7
4




O'n oltitalik nota - cho'zimiga teng keladigan pauzaning yozilishi.



Nota yozuvini qisqartiruvchi belgilar. Nota yozuvini qisartirish belgilari, asarni o‘qish va ijro etishda qulaylik yaratadi.

- 1) Qo‘shimcha chiziqlarni ko‘paytirmaslik uchun asarni ma’lum qismini bir oktava yuqoriga yoki pastga ko‘chirish jarayonida qo‘llaniladi;



- 2) repriza¹¹ asarning ma’lum qismini yoki tuliq qaytarishda foydalaniladi;



- 3) **Volta** – asardagi takrorlanadigan qismning yakunida aynan o‘zgaradigan taktlari ustiga quyiladi. Musiqiy asar birinchi marta ijro etilishida quyida ko‘rsatilgan bir raqami bilan belgilangan qismi, ikkinchi marotaba takroriy ijro jarayonida esa ikki raqami bilan belgilangan bo‘lagi ijro etiladi.



- 4) Asar uch qismli shaklda yozilgan bo‘lsa, u vaqtda uchinchi qism qayta yozilmaydi va ikkinchi qismidan keyin ***Da sapo al fine***-ya’ni “boshidan oxiri so‘zigacha”, deb birinchi qismi oxirida esa ***fine*** (oxiri) so‘zigacha yoziladi.

Birinchi qism eng boshidan qaytarilmasa, qaytarish boshlanadigan takt ustiga ***Segno*** (segno) belgisi qo‘yiladi. Ikkinchi qism oxirida esa: «***Dal segno al fine***» -ya’ni ***segno*** belgisidan to oxirigacha” – deb yoziladi.

¹¹ Repiza - (fransuz. Реприз – такроплаш, қайта ижро этиш). Маданият ва санъат атамаларининг изоҳли луғати. Т.: 2015. 179 б.


Asarning qaytariladigan qismidan oldin keladigan qismiga o'tilganda Da sapo al Segno poi Soda - ya'ni «boshdan to segno belgisigacha bo'lgan oraliqni ijro etish, so'ngra xotima (koda) ga o'tilsin» – deb yoziladi.¹²



6) **tremolo** - ikki tovush yoki tovushlar yigindisi tez, tekis va ko'p marta almashinib takrorlanishiga aytiladi.



7) Takt bir necha marta takrorlanishida qo'llaniladi.



8) Nota yo'li ustiga yoki ostida 8 raqami ko'rstilsa, berilgan tovush oktavada juftlab ijro etiladi.



Alteratsiya belgilari. Alteratsiya-o'zgartirish ma'nosini anglatadi. Asosiy pog'onalarning ko'tarilishi yoki pasaytirilishiga alteratsiya deb aytiladi. Beshta asosiy alteratsiya belgilari mavjud bo'lib, ular quyidagicha:

1. Diyez # - tovush balandligini 0,5 tonga ko'taradi;

¹² Вахромеев. В.А. Музиканинг элементар назарияси. Т.: 1980. 29 б.

2. Bemol $\flat$ - *tovush balandligini 0,5 tonga pasaytiradi;*

balandligini 1 tonga pasaytiradi.

5. Bekar ♯ - mavjud ko‘tarilish va pasayishni bekor qiladi.



Kalitdan keyin qo‘yiladigan belgilar kalit alteratsiya belgisi deyiladi. Kalit alteratsiya belgilari o‘z kuchini asar davomida saqlab koladi. Ta’kidlash kerakki, kuy davomida tasodifiy belgilar ham uchrab turadi. Bu kabi tasodifiy alteratsiya belgilari o‘zgartirilgan tovushning o‘ng tarafidan qo‘yilib, faqatgina shu takt ichigagina taalluqli bo‘ladi. Natijada keyingi taktlar yana dastlabki kalit belgilari asosida ijro etiladi.



Alteratsiya belgilari qo‘yilishi natijasida tovushlarning balandligi bir xil, ammo eshitalishi turlicha bo‘ladi. Bu kabi holatlar **engarmonizm** deb aytiladi. Tovushlar nota yo‘lida bir xil balandikni ifodalasada, biroq ularning yozilishi va aytilishi turlicha bo‘ladi.



Mavjud musiqiy tovushning xar biri ikki va undan ortik engarmonik teng tovushlariga ega. Ular eshitalishi bir xil ammo yozilishi va aytilishi turlicha bo‘ladi.



Xar bir tovush o‘zidan keyingi tovushning yarim yoki bir ton ko‘tarilishi va aksincha o‘zidan oldi tovushning yarim, bir ton ko‘tarilishi natijasida paydo bo‘ladishi mumkin.

1.4. Xalq musiqa ladhari.


Qadimdan xalq musiqasi (folklor) hamda kasbiy musiqa (professional) bir ovozlik shaklida rivojlangan. Bir ovozlik san’ati asosida melodik (monodik)¹³ ladlar yotadi. Har bir xalqning etnik tuzilishi va rivojlanishiga ko‘ra, ma’lum tovushqator tizimi mavjud. Xususan, o‘zbek xalq musiqa merosi o‘ziga xos tovushqatorlar tizimida shakllangan. Ular umumiy xalq lad¹⁴ lari nomi bilan yuritilib, ioniy, eoliy, miksolidiy, lidiy, frigiya, doriy va gippofrigiy ladlaridan iborat. Quyida mavjud ioniy va eoliy ladariga to‘xtalib o‘tamiz. Xar bir bir asosiy tovushdan ioniy tovush qatorini tuzish mumkin. Misol sifatida boshldang‘ich do tovushini oladigan bo‘lsak, quyidagi tovushqator Do ioniy ladini hosil qiladi:



Nota misolida ko‘rinib turibdiki, tovushqatorning pog‘onalari oralig‘ida ton va yarim tonliklar yuzaga keladi. Ularning fortepianodagi ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi

¹³ "Monodiya (gr. **bittaning kushigi. uovo bir.shbg]** - kushik) bir ovozli kuylash (solo).

¹⁴ Lad - turli balandlikdagi tovushlarning o‘zaro munosabati va asosiy tayanch tovushga tortilishi.



Do ioniy tovushqatori tarkibida alteratsiya belgilari qoʻllanilmaydi, lad tarkibi beshta bir tonlik va ikkita yarim tonlikdan iborat.


Navbatdagi xalq lardalari tarkibiga kiruvchi eoliy ladi esa, lya tovushidan tuzilganda quyidagicha tovushqatorni hosil qiladi.

Eoliy



Misolda koʻrinib turibdiki, lya eoliy tovushqator tarkibi 1ton, 0.5 ton, 1 ton, 1ton, 0.5 ton, 1 ton, 1tonlikni tashkil etadi. Shu tarzda har bir asosiy tovushdan xalq ladlaniri tuzish mumkin. Miksolidiy ladini sol tovushidan, doriy ladini re tovushidan, frigiyladini esa mi tovushidan tuzganimizda quyidagi tovushqatorlar paydo boʻladi:

Miksolidiy




Doriy



Frigiy



Lidiy



Ioniy	tabiiy do major (S-dur) 1 — 1 — 0,5 — 1 — 1 — 1 — 0,5	Do tovushidan boshlab tuziladi
Lidiy	4-pogʻonasi kutarilgan major 1-1-1-0,5-1-1-0,5	Fa tovushidan boshlab tuziladi
Miksolidiy	7-pogʻonasi pasaytirilgan major 1-1-0,5-1-1-0,5-1	Sol tovushidan boshlab tuziladi
Doriy	6-boskichi kutarilgan minor 1-0,5-1-1-1-0,5-1	re tovushidan boshlab tuziladi
Eoliy	Tabiiy lya minor (a-moll) 1-0,5-1-1-0,5-1-1	Lya tovushidan boshlab tuziladi
Frigiy	2 - pogʻonasi pasaytirilgan minor 0,5- 1 - 1- 1 -0,5- 1 — 1	mi tovushidan boshlab tuziladi

Xalq ladlarini yuqorida keltirilgan jadval asosida tuzganimizda, hech qanday aliyeritsiya belgilari qoʻllanilmaydi

Ioniy hamda eoliy ladlari tabiiy major va minor tuzilish tarkibini takrorlaydi. Xalq ladlarida major va minor ladlari kabi I -III-V pogʻonalar turgʻunlik asosidan istisno Bu lادلarga keyingi ikkinchi boʻlimda batafsil toʻxtalib oʻtamiz. Xalq ladlari tovushqatorlarining turgʻunlik va noturgʻun tovushlari soni,

darajasi va pogʻonalar tortilish munosabati turlicha belgilanadi. Bu ladlar aynan shu jihatlari bilan xarakterlidir. Bu jihatlarni xalq yoʻlidagi murakkab janrlarga oid musiqiy asarlar hamda folklor ijrochiligiga mansub namunalarda kuzatish mumkin.

Topshiriqlar:

1. Nota yoʻlida notalar qanday tartibda joylashadi?
2. Qanday kalit belgilari qoʻllaniladi?
3. Alteratsiya belgilari nima?
4. Tovushlarni lotin xarflarda belgilanishini aytib bering?
5. Choʻzimlarni qisqartiruvchi va oʻzaytiruvchi belgilarni ayting?
6. Pauza deganda nimani tushunasiz?
7. Asosiy choʻzimlarni aytib bering?
8. Registr deganda nimani tushunasiz?
9. Xalq ladlarini sanab bering?
10. Ioniylar va eoliylar ladlarining farqli tomonlarini ayting?

Ishlash uchun misollar:

1. Notalar yozuviga qisqartiruvchi belgilarni yozing.
2. Berilgan notalar choʻzimni pauzalar bilan almashtiring.



3. Tayoqcha yoki shtil qaysi chiziqda pastga yoki tepaga qaratiladi?
4. Kalitlarni nota yozuvida yozing.

5. re, do va si tovushlarini birinchi oktavada skripka va bas kalitlarida yozib, ko'rsatib bering.

6. Beligan pauza va cho'zimlarni umumiy yig'indisini aniqlang

7. Berilgan kuy namunalarini tovushqatorini aniqlang.

Orif Odilxonov she'ri

Engil

mp

O'lkam taronasi

Rahmatjon Tursunov musiqasi

Yash - na - gan hur o'l - kam - ning teng - siz ba - hor yo - zi bor,

teng - siz ba - hor yo - zi bor.

The musical score is written for voice and piano. It features a treble and bass clef with a 2/4 time signature. The melody is simple and melodic, with lyrics in Uzbek. The piano accompaniment consists of a few chords and a simple bass line.

Muhammad Yusuf she'ri

Engil, xushchaqchaq

mp

O'zbekimnig suluv qizlari

Rahmatjon Tursunov musiqasi

Ro' - mo - li - dan ray - hon hi - di - ni Ta - ra - ta - di

gul - gun yuz - la - ri. Es - la - ta - di Ku - mush - bi - bi - ni.

The musical score is written for voice and piano. It features a treble and bass clef with a 2/4 time signature. The melody is simple and melodic, with lyrics in Uzbek. The piano accompaniment consists of a few chords and a simple bass line.

Saraxbori Buzruk

The musical score is written for voice and piano. It features a treble and bass clef with a 2/4 time signature. The melody is simple and melodic, with lyrics in Uzbek. The piano accompaniment consists of a few chords and a simple bass line.



Баҳор валси



Fortepianoda ijro etish:

1. Asosiy tovushlarni barcha oktavada chalish.
2. Nuqtali cho‘zimlardan foydalanib mashq yozish va chalish.
3. Asosiy pog‘onalardan foydalangan holda xalq ladlarini chalib ko‘rsatish.

1.5. Oddiy metr va o‘lchovlar. Oddiy o‘lchovlardagi cho‘zimlarning turkumlanishi

Musiqada **metr**¹⁵ deganda kuchli va kuchsiz xissalarni bir maromda almashinib kelishini tushunamiz. Kuchli xissalar o‘zgarishsiz takrori musiqada bir maromdagi ritm xarakatini vujudga keltiradi. Bu xarakat jarayonida mavjud xissalarning ayrimlari ajralib turishini kuzatish mumkin.



Misoldagi birinchi xissa doim zarbli bulib urg‘u aynan birinchi xissada kursatiladi

¹⁵ Metr - (yunoncha metron) – метр ўлчов

Bir musiqa namunasida ikki va undan ortiq aksentli tovushlarni kuzatish ham mumkin.

Bu mert xissalari tovush cho‘zamlari bilan o‘lchanadi.



Bu misolad har bir hissaning cho‘zimi chorakka teng.

Ma’lumki, har bir so‘z o‘zining urg‘uli bo‘g‘in yoki tovushiga ega, ammo urg‘u dagi holi bo‘lgan bo‘g‘inlar mavjud. Bu holat musiqada xam o‘z aksini topgan. Kuy yangrashida ham ayrim hissalar urg‘usi bilan, ya’ni qattqlik xususiyati bilan ajralib turadi. Musiqada urg‘uning o‘zini **aksent**¹⁶, aksentga ega hissani *kuchli*, aksent tushmaydigan hissani *kuchsiz hissa* deb aytiladi. Shundan kelib chiqadiki, musiqiy **metr** - bu kuchli va kuchsiz hissalarining bir tekis almashinib turishidir.

Aksentning asosiy vazifasi asarning bir mertik tizimni tashkil etish va boshqa tovushlardan ajratib ko‘rsatishdir. Kuchli hissaga tushgan aksent uning og‘ir hissaliqligini yanada ta’kidlab, muntazam ravishda o‘zgarishsiz keladigan aksent ko‘rsatilishi, kuy harakatlarini bir tartibda kelishini ta’minlaydi. Bu kabi aksentli holatlarni xalq folklor ijodiyotida ya’ni lapar, yalla, alla, bolalar qo‘shiqlari tarkibida ham ko‘zatish mumkin. Professilonal kasbiy musiqasida xam keng qo‘llaniladi

Masalan: Shashmaqomning Navo maqomidan o‘rin olgan Bayot I usulini keltirishimiz mumkin. Ushbu usulni so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, “bum bak” tarzida ifodalanadi. Nota chizig‘ida bu doyra usuli quyidagicha:



Kuchli hissaning takrori bir va bir necha kuchsiz hissalaridan so‘ng kelishiga ham guvoh bo‘lamiz.

¹⁶ Aksent (lotincha accentus: ad -birorta narsaga yaqinligini bildiradigan old qo‘shimcha, cantus - ashula aytish

Abdulla Oripov g'azali

Bu kun

Rahmatjon Tursunov misiqasi

O'rtacha tez

Vah - ki ishq sah - ro - si - da qol - dim be - ishq

tan - ho bu kun. Chiq - ma - Qays o - him bi -

lan yon - moq - da bu sah - ro bu kun.

Agar kuchli hissa bitta kuchsiz hissadan keyin qaytarilsa - *ikki hissali metr*, ikkita kuchsiz hissalaridan so'ng qaytarilsa - *uch hissali metr* hosil bo'ladi.

Kuchli xisslar soni bir takt ichida ikkita bo'lib, ulardan biri nisbatan kuchli, ikkinchisi esa asosiy kuchli xissaga nisbatan kuchsizligini ifodalaydi va to'rt xissali metrni tashkil etadi.

Oraz

O'zbek xalq kuyi

The musical score for 'Oraz' consists of two staves. The top staff is in treble clef and the bottom staff is in bass clef. The time signature is 4/4. The melody is composed of eighth and sixteenth notes, with some rests. The bass line provides a steady accompaniment with similar rhythmic patterns.

Mana shu kuchli hissalar oralig'i musiqada taktlar bilan ajratilib ko'rsatiladi. Ikki kuchli hissaning oralig'iga esa **takt deb** aytiladi. Takt metrning o'lchov birligi hisoblanib, hamisha kuchli hissadan boshlanadi.

Bir kuchli xissadan navbatdagi kuchli xissagacha bo'lgan oraliqni vertikal takt chizig'i ajratib turadi. Takt chizigidan so'ng nota yo'lga yoziladigan birinchi nota yoki pauza kuchli hissani ifodalaydi.

Har bir takti tashkil qiladigan hissalar soni va ularning cho‘zimi ifodalash uchun raqam ko‘rsatgichlari ko‘yiladi. Raqamlar kalitdan so‘ng kasr rakami bilan ko‘rsatiladi. Bu *o‘lchov* deb nomlanadi. O‘lchovdagi berilgan sonlar o‘z navbatida muhim funksiyasini ifodalaydi. Kasrda ko‘satilgan sur‘at raqami takt (metr)dagi hissalar sonini, maxraj raqami esa har bir hissaning cho‘zimini ifodalaydi. Masalan: 2/4 o‘lchov - Har bir takt tarkibi ikkita hissaga ega, har bir hissasi esa choraktalik cho‘zimiga teng.

Ajam I



Musiqasi asarlar tarkibida o‘lchov kalit belgisidan keyin qo‘yiladi, ayrim hollarda esa tasodifiy o‘lchovlar o‘zgarishi ham kuzatiladi, bunda bu o‘zgargan o‘lchov faqat shu belgilangan takt ichiga tegishli bo‘ladi.



Kuy doimiy ravishda xam kuchli hissadan boshlanmaydi. Ba‘zan, *to‘liqsiz taktdan*, ya‘ni *kuchsiz hissa taktoldidan* boshlanishi ham ko‘p kuzatiladi. Deyarli o‘zbek xalq musiqa merosi Shashmaqomning talqin yo‘llarida keltiriladi. Bu jihat asarning xarakteri va obraz jihatlarini ifodalashda muhim unsurlardan iborat bunday asarlarning oxirgi takti ham to‘liqsiz bo‘lib, taktoldi yihindisida bilan birga to‘liq takti tashkil etadi.



1.6. Murakkab metr va o'lovlar. Murakkab taktlarda cho'zimlarning guruhlanishi

Metr turlari takt ichidagi kuchli hissalarining soniga karab aratiladi. Bir kuchli hissaga ega taktlar *oddiy metrni* ifodalaydi. Ikki, uch va undan ortiq kuchli hissalaridan iborat taktlar ***murakkab metr va o'lovlar*** tarkibiga kiradi.

Oddiy metr (yoki oddiy takt, yoki oddiy) deb bitta kuchli hissaga ega bo'lgan metrga aytiladi. Oddiy metrlarda birgina kuchli hissasi mavjud bo'lib, tarkibida nisbatan kuchsiz ikki yoki uch hissalaridan iborat bo'lishi ham mumkin.

Natijada, kuyidagi o'lovlarda o'z ifodasini topadi:

oddiy ikki hissali o'lovlar - 2/2, 2/4, ayrim hollarda 2/8, 2/16, 2/2 o'lov alla breve deyiladi va o'rniga belgi qo'llaniladi.

oddiy uch hissali o'lovlar - 3/2, 3/4, 3/8, kamdan-kam 3/16 qo'llaniladi.

May

R.Korsakov



Nota yozuvini o'qish jarayonini osonlashtirish maqsadida taktdagi mayda (bayroqchali) cho'zimlari takt hissalarini cho'zimiga teng bo'ladigan alohida guruhlariga birlashtiriladi (vokal ijrochiligida cho'zimlar guruhi bo'g'inlarga asoslanib ajratib yoziladi). Shunday qilib, takt hissalarini soniga qarab, oddiy

o'lchovli taktlarda bitta, ikkita yoxud uchta cho'zimlar guruhi hosil bo'lishi mumkin.



Pauzalar nota cho'zimlaridek hissalariga buysunib guruhlanadi.

Murakkab metr va o'lchovlar. Murakkab taktlarda cho'zimlarning guruhlanishi *Murakkab metr* ikkita va undan ortik oddiy taktlarni birlashtirish natijasida hosil bo'ladi.

Murakkab taktdagi kuchli hissalarining soni uni tashkil etuvchi oddiy metrlar sonidan kelib chiqadi. Masalan: $2/4+2/4+2/4=6/4$ - bu degani, oltita chorakdan iborat taktda uchta aksentli hissa mavjud. Bilamizki, to'lik takt faqat kuchli hissadan boshlanadi. Shunday ekan, keltirilgan misoldagi aksentli hissalaridan birinchisi eng kuchli hissadir. Qolgan ikkitasi o'nga nisbatan kuchsizroq bo'ladi. Shuning uchun ular *nisbatan kuchli hissalar* deb ataladi.

Murakkab metrlar uch turga ajratiladi: *bir turdagi murakkab metrlar*, *aralash metrlar* va *o'zgaruvchan metrlar*.

Bir turdagi murakkab metrlar, o'z navbatida, ikki hissali va uch hissali metrlarga ajraladi.

Murakkab ikki hissali metrlar oddiy ikki hissali metrlar qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Ulardan to'rt hissali metr (2ta hissa+2ta hissa) ko'p qo'llaniladi - 4/4, 4/2, 4/8, 4/4 o'lchovi S belgi bilan ham belgilanishi ham mumkin.



$$4/2=2/2+2/2$$

$$4/4=2/4+2/4$$

$$4/8=2/8+2/8$$

O'zgancha

O'zbek xalq kuyi

M.M. ♩ = 100



Murakkab uch hissali metrlar oddiy uch hissali metrlar qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Ulardan olti hissali (3+3) va to'qqiz hissali (3+3+3) metrlar keng qo'laniladi : 6/4, 6/8; 9/4, 9/8.




$$6/4=3/4+3/4.$$



$$6/8=3/8+3/8$$

Naqshi Navo




Aralash metrlar ikki va uch hissali metrlar qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi. Ulardan besh hissali metrlar (3+2 yoki 2+3) ko‘prok uchrab turadi:

$5/4=3/4+2/4$; $5/8=3/8+2/8$ $5/4=3/4+2/4$; $5/8=2/8+3/8$

$$5/4 = 3/4 + 2/4; \quad 5/8 = 3/8 + 2/8$$

$$5/4=3/4+2/4; \quad 5/8=2/8+3/8$$



Сой бۆ-йи - да - (ё) тур-ган йи-гит,
Қо-шу кў - зи - ни - (ё) суз-ган йи-гит,

O‘zgaruvchan metr musiqa asari davomida o‘zgarib turadigan metrga aytiladi. O‘zgaruvchan metr tekis va notekis almashinadilar. Tekis, ya’ni vaqti-vaqti bilan almashinadigan metrning o‘lchovlari kalit yonida ketma-ket joylashgan ikkita kasr raqami bilan ifodalanadi.



Notekis almashinadigan metrning o'lchovlari har bir o'zgarish yuz berganda takt boshida qo'yiladi.

Murakkab taktda cho'zimlarning guruhlanishida uni tashkil qiladigan oddiy o'lchovlar alohida guruh bo'lib, bir biridan ravshan ayrilishi zarur. Oddiy o'lchovli guruhchalarda, yuqorida aytilgandek, mayda cho'zimlarni guruhlash qoidalariga rioya qilish lozim.



1.7.Ritm. Cho'zimlarning asosiy va erkin ravishda turkumlanishi. (usullar 2/4.3/4. 6/8)

Ritm¹⁷ - bu metr xissalarini o'zaro uyushib kelishi va ularning izchilligidir. «Ritm» so'zi tartibga solingan, to'g'ri uyushtirilgan harakatni bildiradi. Ritm musiqiy ifoda vositalaridan biri buli, kuy tuzilishida muxim axamit kasb etadi. Tovushlarning o'zaro metrik jihatidan to'g'ri taqsimlanishi natijasida ritm tekistligi ta'minladandi. Har bir kuchli va kuchsiz zarblarning o'zaro bir maromda kelishi ritmnin asosiy mezonidir.

Ritmik harakat jarayonida metrik aksentlardan tashqari tayanch rolini *ritmik aksentlar* ham bajo keltirishi mumkin.

¹⁷ *Ritm* -юн.ритмус-бир текис оқим

O'zbekimnig suluv qizlari

Muhammad Yusuf she'ri

Rahmatjon Tursunov musiqasi

Engil, xushchaqchaq

mp

The musical score is written for a vocal line and a piano accompaniment. The vocal line is in 2/4 time, starting with a mezzo-piano (*mp*) dynamic. The lyrics are: "Ro' - mo - li - dan ray - hon hi - di - ni Ta - ra - ta - di". The piano accompaniment is in 2/4 time and consists of a simple rhythmic pattern. The score is divided into two systems, with a measure rest (6) between them. The second system continues the vocal line with the lyrics: "gul - gun yuz - la - ri. Es - la - ta - di Ku - mush - bi - bi - ni." The key signature has one sharp (F#).

Ro' - mo - li - dan ray - hon hi - di - ni Ta - ra - ta - di

6

gul - gun yuz - la - ri. Es - la - ta - di Ku - mush - bi - bi - ni.


Ritmik aksentlar takt cho'zimlari orasida eng yirik cho'zimli tovushda paydo bo'ladi. Chunki, davomli tovushlar og'ir, aksenti bor, tayanch tovush sifatida talqin etiladi. Mayda cho'zimdagi tovushlar esa qisqa, va shtkinchi bo'lib, yirik cho'zimli tovushlarga tomon xarakatlanadi.

Taktning kuchli hissasidagi tovushning cho'zimi ko'picha yirikroq cho'zimni ifodalaydi. Bunday holda metr (kuchli hissa) va ritm (yirik cho'zim) aksentlari bir-biriga mos ravio'da uyhunlikni ifodalaydi. Ritmlar tarkibiga kiruvchi punktir ritm musiqa ijrochilik amaliyotida juda keng qo'llaniladigan ritmlar sirasiga kiradi. Bu cho'loq noim bilan mashhur bo'lib, asarga janr va obraz xarakreni ifodalashda muxim ifodaviy vostilardan biridir. Marsh va vals janrlari uchun muhim axamiyat kasb etadi. Oddiy o'lchovlar tarkibidagi punktir ritmlar ayniqsa, o'zbek folklor ijrochilik amaliyotidga (folklor) keng foydalanilgan. Bunga qator misollarni ko'rsatish mumkin.

O'zbeksitonimiz madhiyasi ham aynan punktir cho'zimlar asnosida, takt oldi ko'rinishidan boshlanadi. Bu ritmik ko'rinish madxiyaning boshlanishda kuyga o'ziga xos xarakter va tanatanovorlik ruxiyatini ifodalaydi.

Cho'zimlarning asosiy va erkin ravishda turkumlanishi. Musiqada asosiy cho'zimlarining ikkita teng maydaroq cho'zimga bo'linishi cho'zimlarning *asosiy bo'linishi* deb aytiladi. Asosiy cho'zimlarning istalgan (ikkitaga emas) teng qismlarga bo'linishi *erkin bo'linishidir*.

Birorta asosiy cho‘zimning ikki o‘rniga uchta teng maydaroq cho‘zimga bo‘linishi natijasida **triol** hosil bo‘ladi.



Choraktalik cho‘zimdan uchlik hosil qilishda, uchta choraktalik cho‘zimni egri chiziq bo‘ylab birinchi va uchinchi notalarlarni birlashtiradi. Shuning uchun siz bunda uchta notani, uchlikda ko‘rsatishingiz lozim. Choraktalik uchlik notalarni sanashga qiyin, sababi siz uch joyga ikki zarb ajratasiz, bizga bu uchlikni ko‘rsatish qiyinchilik tug‘diradi, agar biz uchtdan ikkini ajratsak, 2/3 o‘lchovini olamiz, bunda kuchli zarb uchlining ikkitasida ko‘rsatiladi¹⁸

To‘rtta qismga bo‘linadigan cho‘zim beshta teng qismga bo‘linsa - **kvintol** oltitaga - **seksol**, yettitaga - **septol** hosil bo‘ladi.



Nuqtasi bor cho‘zimlar asosan uchta teng maydaroq cho‘zimlarga bo‘linadi. Agar nuqtali cho‘zim uchta emas, ikkita teng qismga bo‘linsa - **duol**, to‘rttaga - **kvartol** hosil bo‘ladi.

¹⁸ Jonathan Har num . Bazic Musik theory. 2001. 130 6.

1.8. Sinkopa. Sinkopaning turlari

Ritmik aksentlar takt choʻzimlari orsida eng yirik choʻzimli tovushda paydo boʻladi. Chunki, davomli tovushlar ogʻir, aksenti bor, tayanch tovush sifatida xis etiladi. Mayda choʻzimdagi tovushlar esa qisqa, yengil boʻlib yirik choʻzimli tovushlarga tomon intiladi.

Takt kuchli hissasida kelgan tovushning choʻzimi odatda yirikroq boʻlishi kup kuzatiladi. Bunday holda metr (kuchli hissa) va ritm (yirik choʻzim) aksentlari bir-biriga toʻgʻri keladi.

Metr va ritm aksentlarining oʻzaro bir-biriga toʻgʻri kelmasligi ***sinkopani*** hosil qiladi. Sinkopaning yaqqol jihatlari - 1) kuchsiz hissada olingan tovushning yangrashi keyingi kuchli hissada ham davom etishi; 2) kuchli hissaga pauzaning toʻgʻri kelishi; 3) kuchsiz hissalariga ataylab aksent berilishi.

Asarda sinkopalar joylashuviga koʻra – *taktaro, takt ichida va xuccalar ichidagi* turlariga ajraladi.

Taktaro sinkopa - bir taktning kuchsiz hissasida yozilgan nota ikkinchi taktning kuchli hissasiga bir xil balandlikdagi tovushlar liga orqali bogʻlanadi:

Dilxiroj



Takt ichidagi sinkopa - taktning kuchsiz va kuchli hissalaridagi notalar liga bilan boglanadi yoki ularning qoʻshilishidan hosil boʻlgan bitta umumiy choʻzimdagi nota bilan yoziladi:

Hissa ichidagi sinkopa – hissaning kuchli qismi choʻzimi boʻyicha kuchsiz qismidan qisqarok boʻladi:

Maysarani ishi

Nurxon ariyasi



Kechikib qoluvchi sinkopa - taktning kuchli hissasida pauza qo'yiladi

Charx II

O'zbek xalq kuyi



Kuchsiz hissalarga ataylab aksent berilishi asarning janri yoki mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Oyxon va Cho'pon do'stlarining chiqishi





Punktirli ritm¹⁹ - nuqtali choʻzimlarni oʻz ichiga olgan ritmik shakl.

Saraxbori Buzruk



Sinkopali ritm - sinkopasi mavjud ritmik shakl. Ritm musiqaning asosiy ifodali vositalardan biri boʻlib (kuy va garmoniya bilan baravar), uning jonli surʼatidir. Ritmning ifodaliligi turli xarakterdagi harakatlar bilan bogʻliq. Tantanali yurish, jizzakkilik, xotirjamlik yoki extirosli xayajonlik holatlarni musiqasi ahamiyatli darajada ritm vositalari yordamida yaratiladi. Ritm metr bilan birgalikda har qanday kuyning janr xususiyatlarini aniqlaydi. Shuning uchun, valsni polkadan, marshni alla kuyidan ajrata olish kiyin ish emas.

1.9. Temp.

Temp-musiqqa asarining belgilangan ijro surʼati va tezligini ifodalaydi. Ular asosan uch turga ajratiladi. Vazmin templar

¹⁹ Punkt -(lotincha *punktuni*) - nuqta.

Vazmin templar

1. Largo-keng
2. Lento-cho‘zim.
3. Adagio –og‘ir.
4. Grave – juda og‘ir.

Bu sur‘tlarda ko‘pincha polifonik shakllardagi janrlarga mansub asarlar yaratiladi. Masalan: raqslar menuet, jiga sarabanda kabi qadimiy syuitalar qismlari sur‘atlari belgilanadi.

O‘rtacha templar

1. Andante – osoyishta, shoshilmasdan
2. Andantino – andantedan sal tezroq
3. Moderato – o‘rtacha
4. Sostenuto – salobatli.
5. Allegretto – jonlanib.
6. Allegro moderato – o‘rtacha tez

Vokal ijrochiligida

Tez templar

1. Allegro – tez
2. Vivo – jonlanib.
3. Vivace - jadal
4. Presto – tez, jonlanib.
5. Rresttissimo –juda tez.

**Asar davomida asosiy temlardan chetlashganida xarakatni aniqlashtiruvchi
qo‘shimcha iboralar**

**Agogika – muallif tomonidan ko‘rsatilgan qat‘iy temp ko‘rsatgichlaridan
chetlashish.**

1. Molto – juda

2. Assai – nihoyat
3. Con moto harakat bilan
4. Sommodo – erkin
5. Non troppo – unchalik tez emas.
6. Non tanto – u qadar sekin emas.
7. Sempre – doimo.

1. Meno mosso – kamroq harakat bilan

2. a) sur'atni susaytiruvchi uchun

1. Ritoyenuto – saqlanibroq.

2. Ritardando – kechikibroq.

3. Allegando - -kegaytirib.

4. Rallentando – seye kinlatib.

Sur'atni jonlantirish uchun:

1. Asselerando – yanada tezlatib.

2. Animando- ruhlantirib

3. Strillgendo – jadalroq.

4. Stretto – ixchamlashtirib.

5. A tempo – o'z tempida

6. Tempo primo- dastlabki sur'atda

7. Tempo I – o'sha sur'atda

Metronim – templarni aniq belgilash va o'lchash uchun
qo'llaniladigan maxsus asbob.

2. dinamika – musiqada tovush eshitalishi turli darajalarini belgilaydi.

a) mutassil kichik darjasi.

1. Fotissimo – juda kuchli.

Forte – kuchli.

Mezzo-fote –mf – o'rtacha kuchli

Pianissimo – pp- juda past

Piano – p - past

Mezzo piano – mp- o‘rtacha past

b) mutassil o‘zgaruvchanlik kuchlilik

1. Kreshendo – kuchaytirish belgisi.
2. poko a poko kreshendo – sekin asta
3. Diminuendo – pasaya yuborish belgisi
4. Poko a poko diminuendo – sekin asta asta rasayishi
5. Smort zando tina boshlash
6. Morendo – tina boshlash

d) Kuchlilik darajasini o‘zgartirish uchun

Riufo‘keu – yana kuchli

2. men forte – sal kuchli

Sforzando –sf – yarim tovushlarning kesein zarbi.

3. Ijro uslubini belgilovchi terminlar

Artikulyasiya – lotincha aptikuo‘ so‘zidan olinib, bog‘lamoq, qismlarga bo‘lib talaffuz qilaman “ ma’nosini anglatadi. .

1. **Ligato** –(italyancha *Ligare* so‘zidan olinib, “bohlamoq ma’nosini beradi) *tovushlarni bir biriga yog‘lab qo‘ib ijro qilish*
2. **Stakatto** – ittalayancha “*stakkake*” so‘zidan olingan bo‘lib, “uzish”, “bo‘lish” ma’nolarini ifodalaydi.
3. **Markato** - (italyancha “*markare*” so‘zidan olinib, ta’kidlash “ajratish” ma’nolarini beradi) *har bir tovush tovush alohida ijro etiladi.*
4. **Portamento** - (italyancha “*roitare*” so‘zidan olinib, “ko‘tarish” “ko‘tarib olish” ma’nolarini anglatadi)
5. . ” – bog‘lab turgan notalar cho‘zimlarining umumiy miqdoriga teng cho‘zimni hosil qiladi.
6. **Spikato** – italyayecha “*spikkare*” so‘zidan olinib, yaqqol ajratish, ta’kidlash” ma’nolarini ifodalaydi.

Topshiriqlar:

1. Asosiy tushunchalar har birini batafsil yoritib bering.

2. Oddiy, murakkab, aralash, o'zgaruvchan metrlarga musiqiy adabiyotdan misol topib, ularni dirijyorlik uslubida hisoblab ko'rsating
3. Chap qo'lda metr pulsini, o'ng qo'lda bir tekis ritm, punktirli, sinkopali ritm misollarini ko'rib chiqing.
4. Asosiy cho'zimlarni triol, kvintol, sekstol, septollarga hamda nuqtali cho'zimlarni duol, kvartollarga bo'lib, nota bilan yozing.
5. Turli xil ritmni qo'llab bir necha kuy iboralarini bastalab, notaga tushirib chaling.

Ishlash uchun misollar:

1. Berilgan musiqa namunasini ritmik ko'rinishini yozib chiqing va taxlil qiling

Bu kun

Abdulla Oripov g'azali Rahmatjon Tursunov misiqasi

O'rtacha tez

Vah - ki ishq sah - ro - si - da qol - dim be - ishq

tan - ho bu kun. Chiq - ma - Qays o - him bi -

lan yon - moq - da bu sah - ro bu kun.

Fortepianoda ijro etish:


1. Berilgan musiqa namunani $\frac{3}{4}$ o'lchovida yozib bering .



1.10. Temperatsiyalangan soz. Tovushlarning harfiy tizimda to'liq belgilanishi.

Zamonaviy musiqa tizimining har bir oktavasi 12 ta tovushni qamrab olgan tovushlar balandlik bo'yicha bir-biridan tent yarim tonliklar bilan ajratilgan. Bu xildagi **sozga** 12 ta pog'onali ***bir tekis temperatsiyalangan*** soz deb aytiladi.

Oktavaning 12 ta pog'onasidan 7 tasi (ok klavishlar) asosiylaridir. Ular tarkibida ikkita yarim tonlik va beshta butun (bir) tonliklar mavjud:




Oktavaning kolgan 5 ta pog'onasi (qora klavishlar) **hosila pog'onalari** deb aytiladi. Albatta, tovushqatorning har bir pog'onasi yangi mustaqil tovush sifatida belgilansada, qadimdan aynan qora klavishalarga hosila asosiy pog'onalarning hosilasi sifati berilgan. Ular asosiy pog'onalarga chqin tarzda joylashganligi sabab, so'zlarimizning yechimi kabi belgilanadi. **Hosila pog'ona** - bu asosiy pog'onalarning balandligini o'zgartirish natijasida (ko'tarish, pasaytirish) hosil bo'lgan pog'onadir.

Pogʻonaning balandligini koʻtarish va pasaytirish jarayoniga *alteratsiya*²⁰ deyiladi. Pogʻonaning alteratsiyasi maxsus belgilar - ***alteratsiya belgilari*** - yordamida amalga oshiriladi. *Diyez* - # - asosiy pogʻonani yarim tonga koʻtaradi (klaviaturada oq klavishga yaqin joylashgan oʻng tomonidagi klavisha), *dubl diyez* - x - ikkita yarim tonga (1 tonga) koʻtaradi. *Bemol* - b asosiy pogʻonani yarim tonga pasaytiradi (klaviaturada oq klavishga yaqin joylashgan chap tomonidagi klavisha),

²⁰ *Alteratsiyu* (lotincha *Alteratio*) - crzgarish.

Mavjud har bir tovush ma’lum ko‘tarilishi va pasayishi natijasida navbatdagi tovushning o‘zgartmasiga aylanadi.



Demak, oktavaning yarim tonliklari teng ekan, qaysidir bir tovushning nomi ikkita yoki uchta asosiy pogʻonadan hosil boʻlishi mumkin. Bunda tovush balandligi oʻzgarimasada uning nomi va yozilishi turlicha boʻladi. Bu tovushlar tengligiga *tovushlar engarmonizmi*²¹ deyiladi.

Masalan, *do-diyez* bilan *re-bemol*, *fa* tovushga *mi-diyez* va *sol-dubl bemol* tovushlarning balandligi teng boʻladi.



Diatonik ton va yarim tonliklar tovushqatorning ikkita qoʻshni pogʻonalar orasida hosil boʻladi. Masalan, *do-diyez* bilan *re-diyez*, *fa* bilan *sol-bemol*.

Xromatik ton va yarim tonliklar tovushqatorning bitta pogʻonasidan hosil boʻlgan ikkita tovush oraligʻiga aytiladi. Masalan, *do-diyez* bilan *do-bemol*, *fa* bilan *fa-diyez*.



Tovushlarning harfiy tizimda toʻliq belgilanishi. Yuqorida aytilgan barcha asosiy tovushlar (pogʻonalar) musiqada lotin alifbosi harflari ham belgilanadi. Harfiy belgilashda musiqaviy tovushqatorning oktavalarini ajrata olish uchun katta va kichik harflardan foydalaniladi. Subkontroktava, kontroktava va katta oktavaning tovushlari katta harflar bilan, kichik oktavadan beshinchi oktavagacha tovushlar kichik harflar bilan yoziladi. Va birinchi oktavadan

²¹*Engarmonizm* - (yun. *Enarmonios*- ohangdoshlik). Xromatik (yun.) – rang.

beshinchisigacha raqam harf ustiga qo'yiladi, masalan: birinchi oktavaning raqami - «1»: *re* tovushi - d , *la* - a ; ikkinchi oktavaning raqami - «2»: d \ g ; uchinchi oktava - «3», to'rtinchi | «4», beshinchi - «5» raqam bilan belgilanadi. Kontroktavaning ham raqam ko'rsatkichi - «1», subkontroktavaning - «2». Birok, bu oktavalarda raqamlari harflarining ostiga yoziladi, masalan: A₁ B₂, E₂, A₂, N₁.

Harfiy belgilashda alteratsiya qilingan pog'onaning hHarfiy ishorasiga *diyez* - is, *dubl diyez* - isis, *bemol- es*, *dubl bemol* - eses so'z bo'g'inlari qo'shib o'qiladi va yoziladi. Masalan,

f + is = **fis** - fa-diyez; d + es = des -re-bemol;

s + **isis** 1 **sisis** - do-dubl diyez; g + **eses** = **geses** -sol-dubl bemol.

Istisno tariqasida: mi-bemolning harfi iikki unli harflar qo'shilishi natijasida mi bemol yeyes emas *yes qilib*, *lya-bemol* - ayes o'rniga *as*, *si-bemol-xes* o'rniga *b* yoziladi.


Alteratsiyalangan pog'onalar harfiy ishoralari jadvali

Alterasiya belgisi	Harfiy ishorasi	s	D	e	F	G		X
#	is	siye	DIS	eis	Fis	gis	ais	xis
X	isis	sisis	Disis	eisis	fisis	gisis	aisis	xisis
b	es	ses	Des	es	fes	geye	as	b
bb	eses	seses	deses	eses	Feses	geses	ases	bb,(bes),(xeses)

1.11.Turg'unlik va noturg'un tovushlar

Turg'unlik va noturg'un tovushlar musiqiy tovushlarning turli xususiyatlari (balandlik, cho'zim, qattiqlik, tembr) va o'zaro ta'siriga ko'ra kuyning jonli harakati namoyon bo'ladi. Shuning uchun, tovushlar o'zaro bir tartibda uyg'unlashgan holda bo'lishi muhim. Zero, ularning uyushqoqligi musiqaning mazmunini, fikrini ifoda eto olish imkonini beradi. Musiqiy fikrning rivojlanishida tovushlar o'zining ahamiyati darajasi bilan ajralib turadi. Har bir tovush o'z funksiyasiga ega bo'ladi. Ma'lum bir musiqiy namuna eshitilishi va ijrosiga binoan turg'unlik va noturg'unlikni ifoda etadi. Kuy harkati eshitish jarayonida

davomiylik tamoyili *noturg'unlik* holatini yaratsa, ayrim tovushlar harakati o'ziga tortib turadigan, harakatni to'xtatadigan, tayanchsimon, *turg'unlik* holatni yuzaga keltiradi. Bunday tovushlar kuy davomida ajralib turadi



Agar sol ioniy tovushqatorini misol sifatida olsak, ular orasidagi yarim va bir tonlik lar tortishuvi natijasida quyidagilar yuzaga keladi.



Andijon polkasi



Misolda keltirilgan «Andijon polkasi» kuyida sol tovush tinchlanish, harakatsizlik tuyg'usini yaratadi. Kuyning qolgan Iya, fa diyez tovushlari, xarakat davomiyligini ta'minlab, si tovushiga intilgan harakat yana asosiy tovushni talab qiladi. Shunday qilib, sol tovush boshqa tovushlarni o'ziga tortib turadigan, ***turg'un tovush*** deb ataladi. Unga intiluvchi tovushlar esa ***noturg'unlikni yaratadi***. Noturg'un tovushlarning intiluvchan harakati turg'un tovushga, ya'ni asosdagi tonga kelib to'xtaydi va bu asosiy ton ***tonika*** deyiladi.

Tovushlarning musiqiy zaruriyatga ko'ra tovushlarning o'zaro munosabati muhimdir.

1.12.Tabiiy major va minor

Tovushlarning tonikaga nisbatan munosabatlari orqali aniqlanadigan o‘zaro aloqalari tizimiga lad²² deyiladi. Laddagi har bir tovushning roli va harakatining xarakteri uning **laddagi funksiyasini**²³ aniqlaydi. Tovushlarning munosabatlari esa lad munosabatlari yoki funksional munosabatlar deyiladi.

Muayyan lad tizimiga tegishli tovushlar *pog‘ona*, pog‘onalarning balandlik bo‘yicha izchil joylashuvi **ladning tovushqatori** deb aytiladi. Ladning birinchi pog‘onasi, tonika - I raqam bilan belgilanadi ikkinchisi -II, keyingilari – III, IV, V va hokazo.

Lad tovushqatorini pog‘onalari orasidagi ton va yarim tonlarning o‘zaro ketma-ket uyushib kelishi tovushqatorlarning tuzilishi deb ataladi. Tovushqatorning tuzilishi kuy ohangiga ta’sir qilgan holda kuy xarakterini belgilab beradi. Asosiy uchinchi pog‘ona ladning qaysi tonikaga oidligini aniqlab berdi. (major yoki minor) Bunga ko‘ra ladlar ikkita turga ajratiladi: 1) tonikadan III - pog‘onagacha bo‘lgan oraliq 2ton bo‘lsa, *major ladi*, 2) tonikadan III - pog‘onagacha 1,5 ton bo‘lsa *minor ladi*.

Harfiy tizimda major ladi "*dur*", minor "*moll*" so‘zlar bilan belgilanadi.



Major gammasi tuzilish tarkibiga ko‘ra ikkita bir xil tuzilgan – 1ton -1ton – 0.5ton tetraxorddan iborat. *Tetraxord*²⁴ - kvarta hajmidagi 4 ta pog‘onali tovushqatoridir. Pastki tetraxord I-pog‘onadan, yuqoridagi tetraxord V- pog‘onadan boshlab tuziladi. Tetraxordlar orasidagi masofa- 1tonni tashkil etadi.

Tabiiy minor gammasining tuzilishi quyidagicha:

1ton - 0,5ton - 1ton - 1ton - 0,5ton - 1ton - 1ton.



²² *Lad* - (lotincha *modus*, frante, va ingl. *mode*) I totuvlik, inoklik, x.amji\atlik. ittifok; rus tildagi «lad» so‘zining ma’nosi grekcha *5uovia* so‘zi ma’nosiga teng keladi (musiqiy estetik ma’noda garmoniya ni bildiradi); kulokka yokimli eshitiladigan tovushlarning balandlik bo‘yicha uyg‘unlashuvi.

²³ *Функция* - (лотинча *функтио*) - бажариш, амалга ошириш; муносабатлар тизимидаги бирорта нарса (кимса) нинг фаолияти, вазифаси, роли.

²⁴ Тетрахорд-(грекча- тўрт овоз) маъносини англатади.

Minor tetraxordlari majorga nisbatan turlicha tuziladi: pastki tetraxord - **1ton - 0,5ton - 1ton**, yuqoridagi tetraxord - **0,5ton -1ton-1ton**.

Majorning garmonik va melodik turlari.

Klassik musiqada major va minor kabi ularning o'zgartirilgan garmonik turi ham keng foydalaniladi. Bu turdagi ladlarda o'zgartirilgan pog'onalar ham tabiiy ladlar kabi o'zining lad funksiyasini o'zgartirmaydi. Shuning uchun, major va minorning garmonik bilan melodik turlari diatonik ladlar tarkibiga kiradi. Alteratsiyalangan pog'onalar ladning asosiy pog'onalari o'rniga variant sifatida ishlatiladi. Bu o'zgartirilgan noturg'un pog'onalarining turg'un pog'onalarga nisbatan intilishi tarangligi yanada kuchayadi.

Garmonik majorda VI - pog'ona yarim tonga pasayadi. Uning yaqqol belgisi - xromatik yarim tonga pasaygan VI -VII pog'onalar oralig'ida hosil bo'lgan 1,5 tonga teng kelishidir.



Melodik major gammasining faqat *pasayuvchi harakatida VII - va VI - pog'onalar yarim tonga pasayadi*. Yuqorilama harakat gammaning tabiiy major gammasining o'zidir.

Uning yuqorigi tetraxordining pastga tomon to'zilishi - 1ton - 1ton - 0,5ton - tabiiy minor tetraxordi bilan mos keladi.

Melodik major gammasi



Major tonalliklari.

Temperatsiyalangan musiqaviy tovushqatorning har bir asosiy pog'onasidan *major ladi (1 ton 1ton yarim ton, bir ton, bir ton, yarim ton)* tuzish mumkin.



Bunda faqat Do-major (S-dur) tonalligi asosiy pog'onalarni barchasini o'z ichiga qamrab oladi. Qolgan tonalliklar major ladi tovushqatorlari tuzilganida albatta, hosila pog'onalaridan foydalaniladi..

Re-majorga 2 ta hosila pog'ona ko'shiladi - fa-diyez, do-diyez, Mi-majorga 4 ta diyez - fa, do, sol, re,

Asosiy pog'onalar	C	G	D	A	E	H	<i>F</i>
Tonalliklar	C	G	D	A	E	H	F

Kalit belgilari	0	1	2	3	4	5	1
--------------------	---	---	---	---	---	---	---

Hosila pogʻonalarga tegishli alteratsiya belgilari asarning har bir nota yoʻlida kalitdan soʻng yoziladi. Ularga ***kalit belgilari*** deyiladi.

Kalit belgilari hammasi boʻlib 7tani tashkil qiladi. Kalit yonida hamisha bir turdagi kalit belgilar - yoki faqat diyezlar, yoki fakat bemollar yoziladi. Bu jihat boʻyicha tonalliklar diyezli va bemolli tonalliklarga ajratiladi.

Kalit belgilari har doim katʼiy oʻrnatilgan tartibda (kvinta oraligʻida) yoziladi. *Diyezlar tartibi* - fa, do, sol, re, lya, mi, si. (bemollar qatorining teskarsi). *Bemollar tartibi* - si, mi, lya, re, sol, do, fa. (diyezlar qatorining teskarisi).



Ladlarning garmonik va melodik turlarida yoki boshqa bir sabab bilan roʻy beradigan oʻzgarishlar ***tasodifiy alteratsiya belgilari*** yordamida koʻrsatiladi. Bu xildagi belgilar oʻzgaradigan pogʻonaning oldidan (notaning chap tomonidan) yozilishi lozim. Kalit belgilari diyezlar boʻlsa, tasodifiy belgilar bemol, bekar ham boʻlishi mumkin va aksincha.

Koʻrmadim



1.13.MINOR LADI VA TONALLIKLARI

Minor ladi tarkibi (1ton-0,5ton-1ton-1ton-0,5ton-1ton-1ton) asosiy pogʻonalardan tuzilishi natijasida quyidagi tonalliklar va kalit belgilari hosil boʻladi:

Asosiy pogʻonalar	s	d	e	f	g	a	h
Tonalliklar	c-moll	d-moll	e-moll	f-moll	g-moll	a-moll	h-moll
Kalit belgilari	$\text{z } \flat$	$1 \flat$	$1 \#$	$4 \flat$	$1 \#$	0	$2 \#$

Diyezli minor tonalliklar.



Bemolli minor tonalliklar. Bemolli minor tonalligida oxirgi kalit belgisi tovushqatorining VI- pogʻonasiga toʻgʻri keladi.




Major va minor tonalliklar kalit belgilari ko‘payishi bo‘yicha (*do-major* dan o‘ng tomonga diyezli tonalliklar, chap tomonga bemolli tonalliklar) tartibga solinsa, tonalliklarniig kvinta bo‘yicha joylashuvi tamoyili namoyon bo‘ladi: *fa* dan *do* gacha masofa kvintaga teng, *do* dan *sol* gacha - kvinta, *sol* dan *re* gacha - kvinta va hokazo.

E’tibor bering, tonalliklar ketma-ketligi va kalit belgilari tartibi bir xil. Kvinta bo‘yicha joylashgan tonalliklar qatori yettita kalit belgigacha davom etilsa, musiqa amaliyotida qo‘llaniladigan barcha tonalliklarniig «kvinta qatori» hosil kilinadi.

Tonalliklarning kvinta bo‘yicha joylashuvi davra shaklida ham tasvirlanadi. Bunga «*kvintadavrasi*» debnom beriladi.

Diyezli va bemolli major tonalliklari.



Kvinta davrasidagi qo'shni tonalliklar eng yaqin qarindosh tonalliklar deb hisoblanadi. Negaki, ular 6 ta umumiy tovushga egalik qiladi.


Ular asosiy tonallik paralleli, asosiy (S) subdominanta va uning paralleli, asosiy (D) dominanta va uning paralleli. Va shu bilan bir qatorda minor subdominantasi xam kiradi.

Agar ularni asosiy do majordan tuzilgan xar bir uchtovushlik asosida kqaralsa quyidagicha tartibni kuzatamiz.

Minorning garmonik va melodik turlari

Garmonik minorda VII - pog'ona yarim tonga ko'tariladi. Uning yaqqol belgisi – *V va xromatik o'zgargan VII –pog'onasi oralig'ida hosil bo'lgan 1,5 tonga teng kelishidir.*


Uning yuqorigi tetraxordi **0,5ton-1,5ton-0,5ton**lar izchiligida ifodalanadi:



Shunday qilib, garmonik major va garmonik minordagi yuqorigi tetraxordlarning tuzilishi bir-birini takrorlaydi.

Melodik minor gammasining fakat yuqorilama *harakatida VI va VI-pog'onalar yarim tonga ko'tariladi*. Gammaning quyi *harakati esa **tabiiy minor** gammasining o'zidir*.


3



Misollardan ko'rinadiki, melodik major va minordagi yuqorigi tetraxordlarining tuzilishi va ohangi bir xil bo'ladi.


1.14.Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar

Kvinta davrasi jadvalidan shuni ko‘rish mumkinki, muayyan kalit belgilar soniga bitta major va bitta minor tonalliklar muvofiq keladi. Masalan, *Fa-major* tonallikka *re-minor* tonallik, *Re-majorga si-minor* muvofiqdir. Har bir major tonalligi uchun uning pog‘onadosh minor tonalligini topish uchun asosiy major tonallikdan 1.5 ton (kich 3) pastga harakat qilishning o‘zi kifoY. Kalit belgilari bir xil bo‘lgan tonalliklarning tovushqatorlarni ham bir xil bo‘ladi. Lekin, ularning tonika tovushlari boshqa-boshqa pog‘onalarga joylashgan. Majorning tonikasi pog‘onadosh minor uchun uning **III** -pog‘onasiga, minorning tonikasi pog‘onadosh major uchun uning **VI**-pog‘onasiga to‘g‘ri keladi. Ularning o‘zaro Binobarin, ular tonikalarining orasi uchta pog‘ona va 1,5(kich.3) tonga baravar. Xullas, bunday tonalliklarning tovushqatorlarni bir biriga tersiya balandlikda ustma ust palel tarzda joylashganda pog‘onpdoshlik kurinishi vujudga keladi.



Ana shunday bir xil bir xil kalit belgilariga ega major va minor tonalliklar **parallel tonalliklar** deb aytiladi.

Nomdosh tonalliklar deb umumiy tonika tovushiga ega bo‘lgan major va minor tonalliklarga aytiladi. Ularning birxil balandlikdagi tonika tovushiga ega tovushqatorni ifodalasada, interval tarkibi va lad jihatidan turlichadir



Nomdosh tonalliklar o‘zaro bir biridan uchta kalit belgiga farq qiladi: balandligi bir xil tovushdan boshlangan major uchun minor minor uchun major nomdosh tonallik nomini oladi. Masalan:

Do major va do minor,
Dodiyez major va Dodiyez minor
Re major re minor,
Mi major va mi minor,
Mi bemol major va mi bemol minor
Fa major va fa minor,
Fa diyez major va fadiyez minor
Sol major va sol minor,
Lya bemol major va lya bemol minor
Lya major va lya minor
Si major va si minor
Si bemol major va si bemol minor

Xar bir nomdosh tonalliklar o‘zaro uchta kalit belgisiga farqlanadi.

*Bundan tashqari bu tonalliklarning har biri o‘z o‘rnida engarmonik teng tonalliklari xam mavjud, bu tonalliklar cholg‘uda bir pardalarni ifodalb, bir xil eshitilishiga ega bo‘lsada, biroq ularning yozilishi va aytilish turlichadir. Bu tonalliklar engarmonik **teng tonalliklar** deb aytiladi. Tonalliklarning engarmonik tengligida diyezli tonallik bemolli tonallika almashinadi va aksincha, bemolli tonallik diyezli tonallikka aylanadi. Engarmonik teng tonalliklarning kalit belgilari yig‘indisi 12ni ifodalaydi:*

Musiqada 6 ta major va 6 ta minor engarmonik tonalliklar mavjud

Si major (H- dur)=Do bemol major,

Si bemol major (B-dur) = Lya bemol major (As-dur),

Do diyez major (Cis-dur) = Re bemol major (Des-dur)

Fa diyez major (Fis-dur)=Sol bemol major (Ges-dur),

Topshiriqlar:

1. Major gammasining tuzilish tarkibini ko'rsating?
2. Re tovushidan major gammasini tuzing?
3. Re major gammsining turg'un va noturg'un pog'onalarini aniqlang?
4. Minor gammasining tuzilish tarkibini ko'rsating?
5. Si tovushidan minor gammasini tuzing?
6. Si minor gammsining turg'un va noturg'un pog'onalarini aniqlang?

Ishlash uchun misollar:

1. *Quyidagi berilgan musiqa namunalar taxlili qiling*

Ruslan va Lyudmila



Berilgan namunaning tonalligi, tayanch pog'onalarini aniqlang?

Yevgeniy Onegen

P.I.Chaykovsiy



Yakkadur Toshkent

D.Omonullayeva kuyi




2.

Furqat nidosi

Abdulla Oripov she'ri

Rahmatjon Tursunov misiqasi

O'rtacha tez




3.

Sevgi ixtiyori

Po'lat Mo'min she'ri

Rahmatjon Tursunov musiqasi

Moderato



Fortepianoda ijro etish:

1. Yuqorida keltirilgan nota namunalarini ijro etish.

IKKINCHI BO'LIM

2.1. Intervallar. Son va sifat miqdori.

Interval²⁵ ikki tovushning oralig'idagi masofaga aytiladi. Ikki tovush ijro etilishi va eshitilish holatiga ko'ra **garmonik** va **melodik** intervallarga ajratiladi.

Intervallarning birin-ketin eshitilishi **melodik**, bir vaqtning o'zida eshitilishi esa **garmonik intervallarni** hosil qiladi. Intervalning joylashuvida quyi tovush uning *asos*, yuqorigi tovushi esa *chuqqisi* deyiladi.



Intervallar pastdan yuqoriga qarab o'qiladi. Interval pog'onalar miqdori bilan o'lchansa son miqdori, ton va yarim tonliklar bilan o'lchanganda sifat miqdorini belgilaydi. **Pog'onalar miqdorida** qamrab olingan pog'onalar soni

²⁵ 1 *Interval* (lotincha *intervallum*) oraliq

raqam bilan ko'rsatilib, intervalga pog'onalar soniga muvofiq lotincha interval nomi beriladi. *Prima* yoki unison²⁶ -1-bitta pog'ona;

Sekunda -2 - ikkita pog'ona;

Tersiya -3 - uchta pog'ona;

Kvarta -4 -to'rtta pog'ona

Kvinta -5 - beshtapog'ona;

Seksta -6 - oltita pog'ona;

Septima -7 - yettita pog'ona;

Oktava -8 - sakkizta pog'ona.

Intervallar o'zining sifat va son miqdorini kengligiga ko'ra ikkita guruhga ajraladi:

1) **oddiy intervallar** – *bir* oktava oralig'ida hosil bo'lgan yuqorida ko'rsatilgan intervallardir.

2) **tarkibli intervallar** – bir oktavadan ortiq intervallar.

Tarkibli intervallar oddiy intervallar yig'indisidan hosil bo'ladi.

Tarkibli intervallar quyidagicha:

Nona -9 – to'qqiz pog'ona, oktava + sekunda yig'indisi;

Detsima -10 - o'nta pog'ona, oktava +tersiya yig'indisi;

Undetsima -11- o'n bitta pog'ona, oktava+kvarta;


Duodetsima -12 - o'n ikkita pog'ona,oktava+kvinta yig'indisi;

Tertsdetsima -13 - o'n uchta pog'ona, oktava+seksta yig'indisi;

Kvartdetsima-14-o'n to'rtta pog'ona, oktava+septima yig'indisi;

Kvintdetsima -15- o'n beshta pog'ona, oktava.


Ayrim hollarda pog'onalar mikdori bir xil bo'lgan intervalarning sifat miqdori turlicha bo'lishi kuzatiladi. Shunga ko'ra qo'shimcha atamalar yordamida ajratiladi. Jumladan: *sof* (s. harfi bilan belgilanadi), *katta* (*kat.*), *kichik* (*kich.*). *orttirilgan* (*ort.*), *kamaytirilgan* (*kam.*) kabilardir.




²⁶ " *Unison* - fitaliyancha *imisono*: *units* - bitta, *sonus* - tovusty ikkita ovoznig bitta tovush'da qo'shilishi

2.2. Diatonik intervallar. Xarakterli intervallar.


Diatonik **lad** pog'onalari tarkibida hosil bo'lgan intervallar *diatonik intervallar* deyiladi. Ular tabiiy major va tabiiy minor tarkibida hosil bo'lgan intervallardir.



Diatonik intervallar tarkibiga garmonik major va garmonik minolarda hosil bo'lgan itnervallar xam mansub. Ular aynan shu jihati bilan xarakterlanadi. Bu kabi intervallar *xarakterli* deb nomlanadi. Xarakterli intervallar oddiy intervallardan farqi ular ladning aynan o'zgargan pog'onalarida hosil (majorda VI pog'ona tushirilishi va minorda VII pog'onaning ko'tirlgan pog'onaplarida paydo bo'ladi) bo'ladi. Ular to'rtta bo'lib, ort.2, kam.7, ort.5 va kam.4 dan iborat.



Bu intervallar yechilishida ladning asosiy turg'un pog'onalariga tortiladi va yechiladi. Intervallarning yechilishi aynan uning taranglik darajasi bilan bog'liq bo'lib, lad pog'onalarining tortilish qonuniyatiga asosan quyidagi sxema asosida amalga oshiriladi.



2.3.Xromatik intervallar. Engarmonik teng intervallar

Xromatik interval deb orttirilgan va kamaytirilgan intervallarga aytiladi. Xromatik intervallar tarkibiga - ort.4 va kam.5 uchtonliklar mansub. Biroq xarakterli ort.2, kam.7, ort.5, kam.4 intervallar bundan mustasnodir.

Oddiy intervallar tarkibiga kiruvchi intervallarning yarim ton kengayishi natijasida orttirilgan va aksincha yarim tonga kamaytirilishi natijasida kamaytirilgan intervallar hosil bo‘ladi. Lekin bu jixat ularning son miqdorini o‘zgartirmaydi.

Xromatik interval tonlar miqdori bo‘yicha albatta birorta asosiy intervalga teng keladi. *Tonlar miqdori bir xil bo‘lgan intervallarning eshitilishi ham bir xil bo‘ladi.* Bunday intervallarga ***engarmonik teng intervallar deyiladi.*** Engarmonik teng intervallarning pog‘onalar miqdori esa bir xil yoki xar xil bo‘lishi mumkin.

ort.3 sof.4 sof.4

8.5 8.4 8.5 8. 11(4) 8.5

8.12(5) 8.4 8.12(5) 8.4 8.

6 t 6 t
3.5 + 2.5 4.5 + 1.5

8.5 8.4 kat.6 kich.3

2.4. Ohangdosh va noohangdosh intervallar.

Diatonik intervallar o'zining garmonik yangrashi sifati bo'yicha *konsonans*²⁷ (oxangdosh) va *dissonans* (nooxangdosh) intervallarga ajraladi.

Musika nazariyasida *dissonans*²⁸ *sekunda, septima va uchtonliklar* (ort.4, kam.5) hisoblanadi (bularga muvofiq tarkibli intervallar ham nazarda tutiladi). *Keskin dissonanslar* deb kichik sekunda (kich.2, 0.5t), katta septima (kat.7 4.5t) va uchtonliklar (ort.4, kam.5) nazarda tutiladi.

Yumshoq dissonanslar - katta sekunda (kat.2k1t), kichik septima (kich.7k5t.) qolgan oddiy intervallar-*prima,oktava,kvarta, kvinta, tertsiya, seksta* lar konsanaga mansub. Mukammal *konsonanslar* - *sof intervallar*'. prima bilan

²⁷ "Konsoncnis (lotincha *consonantia*) uyg'un sado.

²⁸ "Dissonans - (lotincha *dissonantia*) uyg'un^unsiz sado

oktava - nixoyat mukammal konsonanslar, hamda kvarta bilan kvinta - mukammalkonsonanslar deb hisoblanadi. *Yumshoq konsonanslar* -tersiya va seksta.

Intervallarning aylanishi. Intervalning aylanmasi. Intervallarning quyi tovushi **asosi**, nisbatan yuqoridagisi **chuqqi** deb belgilanadi.




Mavjud ikki tovush (asosni bir toktava cho‘qqiga, aksincha cho‘qqini asosga o‘tishi) o‘zaro o‘rin almashishi natijasida intervallar aylanmasi hosil bo‘ladi. Ikkala harakat bir vaqtda bajarilishi ham mumkin. Bunday xarakat *intervalning aylanmasi* deb atiladi.



Oddiy intervallar aylanishi quyidagi qonuniyatlar asosida yuzaga keladi:

- 1) ikkila oddiy interval pog‘onalar son miqdoriy yig‘indisi 9 raqamini ifodalaydi;
- 2) inikkala intervalning sifat miqdor yig‘indisi olti tonga teng. Xususan, sof-sof, katta-kichikka, kichik-kattaga, ortirilgan-kamaytirilgan, kamaytirilgan esa ortirilgan intervalga aylanganda – sof.4 (2,5 ton) + sof.5 (3,5 ton), kat.6 (4.5 ton) + kich.3 (1.5 ton) qo‘shilishi natijasida umumiy yig‘indi olti tonni (sof.8) hosil qiladi. Umumiy pog‘onalar son miqdori yig‘indisi 9 (nona)ni (1+8, 2+7, 3+6, 4+5) tashkil etadi.



Nota misolida keltirilayotgan dastlabki takt osti raqamlari (8.5, 8.4) oktava oralig‘idagi kvinta va kvartani ifodalaydi.

prima 1 + 8 oktava

sekunda 2+7 septima

tersiz 3 + 6 seksta

kvarta 4 + 5 kvinta

katta kichik intervalga,

kichik esa katta intervalga,

ortirilgan kamaytirilganga,

kaamaytiligan ortirilganga aylanadi. Bu qonuniyat buzilsa, demak aylanma to'g'ri amalga oshirilmagan hisoblanadi.

Topshiriqlar:

- 1.Interval deb nimaga aytiladi?
- 2.Tarkibli intervallar qanday hosil bo'ladi?
- 3.Oddiy intervallar tarkibiga qanday intervallar mansub?
- 4.Tarkibli intervalarlar qanday okatava oralig'ida hosil bo'ladi?
- 5.Intervallarning aylanmasi va yechilishining o'zaro farqlarini ajratib bering?
6. Intervalning tuzilishida son va sifat miqdorlari qanday aniqlanadi?
- 7.Pog'onalar miqdori tonliklar bilan o'lchanishi qanday nomalanadi?

Ishlash uchun misol:

- 1.Do va sol tovushlaridan sof intervalllarni tuzing.
2. Tabiiy major ladida oddiy intervallarni tuzing.
3. kat.3 va kich.7 intervalini si va mi tovushlaridan tuzing.va tonalligini aniqlang?
4. Re majoor garmonik turida xarakterli intervallarni tuzish va yechish
5. mi tovushidan uchtonliklarni tuzing va yeching.

Fortepianoda ijro etish:

- 1.Barcha major tonalliklarda oddiy intervallarni tuzish va chalish.
2. Iya notasidan xromatik intervallarni tuzing va chalish

2.5. Akkord. Uchtovushlik


Bir necha tovushlarni bir vaqtda uyg'unlashib kelishi natijasida akkord ²⁹ hosil bo'ladi.

Akkordalar interval tarkibi va ularning soniga ko'ra turlicha guruhlariga ajratiladi. Tersiya bo'yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan uchta tovush izchilligiga uchtovushlik deb aytiladi. Agar tovushlar soni to'rtta bo'lsa, sepakkord, beshta bo'lsa nonakkord deb yuritiladi.

Akkordning to'z'ilishi uni tashkil qiladigan tovushlar soni va ular orasidagi intervallar miqdori ham muhim. Bu jihatlar akkordning kalassik garmoniyadagi major va minor turlarini aniqlab beradi. Uchtovushlik tarkibi major uchtovushligini hosil qilsa (kat.3) katta uchtovushlik, minor uchtovushligini hosil xos bo'lgan akkordlar ma'lum chegaralarni uz ichiga oladi. Tersiya buyicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan uch va undan ortik tovushlarning bir vaqtda eshitalishiakkor deb aytiladi misol akkordlar lavd va tovushdan tuzilish ikoniyatiga ega

Akkordni tashkil qiladigan har bir tovush o'z nomiga ega. Ular asosiy tonga nisbatan qo'yidagicha bo'ladi

Akkordning pastki tovushi uning *asosiy toni* yoki *primasi* o'nga nisbatan tersiya intervalini tashkil qiladigan tovush - *tersiyasi*, asosiy tondan kvintan tashkil qiladigan tovush *kvintasi*, septima tashkil qiladigan tovushi esa – *septimasi* deb ataladi. Bu akkord tovushlari o'z nomiga muvofiq rakamlar bilan belgilanadi: akkordning asosiy toni - 1, tersiyasi - 3, kvintasi - 5, septimasi - 7.



Akkord to'z'ilishida uning eng pastki tovushi sifatida asosiy toni joylashgan bo'lsa bo'lsa, *akkordniig asosiy ko'rinishi* deyiladi. Agar eng pastki tovush sifatida boshqa biror akkord toni bo'lsa, akkordning aylanmasi hosil bo'ladi.

Akkordlar o'z tarkibidagi tersiyalar (tersiya intrvali nazarda tutiladi) soni va chekka tovushlari xajmiga qarab ajratiladi. Masalan, *chekka tovushlari orasi kvinta bo'lgan ikkita tersiyadan iborat akkord uchtovushlik* deyiladi. *Chekka tovushlari orasi septima bo'lgan uchta tertsiyadan iborat akkord septakkord* deyiladi. *Chekka tovushlari orasi nona bo'lgan to'rtta tersiyadan iborat akkord nonakkord* deyiladi.

²⁹ Akkord - (lotincha *accordae*) — moslashtiryapman, kelishtiryapman.



Har bir akkord turi o'z navbatida uni tashkil qiladigan tertsiyalar sifati bo'yicha yana bir necha turga ajratiladi.

2.6.Uchtovushlik. Uning turlari va aylanmalari

Uchtovushlik –tertsiya bo'yicha joylashgan uchta tovushdan iborat akkorddir.Uchtovushlikning chekka tovushlari kvintani hosil qiladi.

Belgilanishi – 5_3 .

Katta va kichik tertsiyalar yordamida uchtovushlikning to'rtta xili tuziladi. Ulardan ikkitasi *konsonans* ohangiga ega bo'lib, *har xil tertsiyalardan* iborat va chekka tovushlari *sof kvintani* hosil qiladi.

1) **major** yoki *katta* uchtovushlik pastki tertsiyasi katta (2 ton), yuqorigi tertsiyasi kichik (1,5 ton) bo'ladi. Belgilanishi - $\text{Dur}^5_3 = \text{kat.3} + \text{kich.3}$;

2) **minor** yoki *kichik* uchtovushlikning pastki tertsiyasi kichik (1,5 ton), yuqorigi katta (2 ton) bo'ladi.Belgilanishi - $\text{moll}^5_3 = \text{kich.3} + \text{kat.3}$.

Uchtovushlikning yana ikkita xili *dissonans* ohangiga ega bo'lib, *ikkita bir xil tertsiyalardan* iborat va chekka tovushlari brinchisida *orttirilgan kvinta*, ikkinchisida *kamaytirilgan kvintani* hosil qiladi.

1) **Orttirilgan** utovushlikikkitakattatertsiyadan iborat. Chekka tovushlari orasi orttirilgan kvinta ($\text{ort.5} = 4 \text{ ton}$) ga teng.Belgilanishi - $\text{Ort.}^5_3 = \text{kat.3} + \text{kat.3}$.

2) **Kamaytirilgan** uchtovushlik ikkita kichik tertsiyadan tuziadi. Chekka tovushlar orasi kamaytirilgan kvinta ($\text{kam.5} = 2 \text{ ton}$) ga teng.


Belgilanishi - $\text{Kam.}^5_3 = \text{kich.3} + \text{kich.3}$.



Uchtovushlik ikkita *aylanmaga* ega.

Birinchi aylanmasi **sextakkord** deyiladi. U uchtovushlikning prima tovushi bir oktava yuqoriga quchirilishi natijasida hosil bo‘lib, tertsiya tovushidan boshlab tuziladi. Tertsiyasidan primasigacha hosil bo‘lgan seksta intervali unga nom beradi. Belgilanishi – 6.funksiya o‘ng tomondan kichik raqam bilan ifodalanadi.

Uni tashkil qiladigan intervallar – pastda tertsiya, yuqorida kvarta joylashadi. (3+5) Major va minor sextakordning kvartasi sof, orttirilgan sextakordning kvartasi kamaytirilgan, kamaytirilgan sextakordning kvartasi orttirilgan bo‘ladi.



$$\text{Dur}_6 = \text{kich.3} + \text{sof.4};$$


$$\text{Moll}_6 = \text{kat.3} + \text{sof.4};$$

$$\text{Ort.}_6 = \text{kat.3} + \text{kam.4};$$

$$\text{Kam.}_6 = \text{kich.3} + \text{ort.4}.$$

Ikkinchi aylanmasi **kvartsextakkord** deyiladi. U primasi bilan tertsiyasi bir oktava yuqoriga ko‘chirilishi natijasida hosil bo‘lib, kvinta tovushidan boshlab tuziladi. Kvintasidan primasigacha va kvintasidan tertsiyasigacha hosil bo‘lgan kvarta va seksta intervallari unga nom beradi. Belgilanishi – 6_4 .

Uni tashkil qiladigan intervallar – pastdakvarta, yuqorida tertsiya joylashadi.



$$\text{Dur}^6_4 = \text{sof.4} + \text{kat.3};$$

Moll⁶₄ = sof.4 + kich.3;

Ort.⁶₄ = kam.4 + kat.3;

Kam.⁶₄ = ort.4 + kich.3.

Asosiy uchtovushliklar

Major va minor pogʻonalarida uchtovushliklar tuzish mumkin. Tabiiy major pogʻonalarida tuzilgan uchtovushliklar orasida **uchta majorli** (I-, IV-, V- pogonalar uchtovushliklari), **uchta minorli** (II-, III-, VI-) va **bitta kamaytirilgan** (VII-) uchtovushlik mavjud:

Tabiiy minor pogʻonalarida quyidagi uchtovushliklar joylashadi:

Tabiiy minor ladi **uchta minorli** (I-, IV-, V- pogonalar uchtovushliklari), **uchta majorli** (III-, VI-, VII-) va **bitta kamaytirilgan** (II-) uchtovushlikka ega.

I-, IV-, V- pogonalar uchtovushliklari, ya'ni *tonika*, *subdominanta* va



dominanta ladning xususiyati (major yoki minorligi)ni ta'kidlashishi sababli **asosiy uchtovushliklar** deb yuritiladi. Ushbu uchtovushliklar laddagi asosiy funksiyalarning garmonik ifodasi bo'lib, ladning garmonik asosini yaratadi.



Asosiy uchtovushliklar sekstakkord va kvartsektakkord aylanmalariga egadir.

Yondosh uchtovushliklar. Ladning II-, III-, VI-, VII- pogʻona uchtovushliklari **yondosh uchtovushliklar** deyiladi. Ular ladda ikkinchi darajali

ahamiyatga ega bo'lib, har bittasi birorta asosiy uchtovushlikka umumiy tovushlar orqali tegishlidir.


Yondosh uchtovushliklarning funksional mansubligi ularning asosiy uchtovushliklar bilan umumiy tovushlar bo'yicha o'xshashligidan kelib chiqadi. Yondosh va asosiy uchtovushliklar o'rtasida ikkitadan umumiy tovush borligi tufayli II- va VI- pog'ona akkordlari subdominanta, III- va VII- pog'ona akkordlari esa dominanta, VI- va III- pog'ona akkordlari tonika funksional guruhlarini tashkil etadi. VI- va III- pog'ona akkordlari ikkita asosiy funksiyaga mansub bo'lishi uchun **bifunksional akkordlar** deb hisoblanadi.

III- va VI- pog'ona akkordlari *yuqori va pastki medianta* uchtovushliklari, II- va VII-pog'ona akkordlari *yuqori va pastki yetakchi* uchtovushliklari deb ataladi.

Yondosh uchtovushliklar ham ikkita aylanma – sekstakkord va kvartsektakkordga ega.

Garmonik major va garmonik minor uchtovushliklari.


Garmonik majordapasaytirilgan VI- pog'ona subdominanta guruhidagi



akkordlariga ta'sir qiladi: VI- pog'onada orttirilgan uchtovushlik, IVpog'ona- da minorly subdominanta uchtovushligi, II- pog'onada kamaytirilgan uchtovushlik tuziladi.

Minorli subdominanta uchtovushligi garmonik majorga yumshoqroq xarakter bag'ishlaydi.

Garmonik minorda ko'tarilgan VII- pog'ona dominanta guruhidagi akkordlariga ta'sir qiladi: III- pog'onada orttirilgan uchtovushlik, V- pog'onada majorly D uchtovushligi, VII- pog'onada kamaytirilgan uchtovushlik tuziladi. Majorli D uchtovushligi minor ladiga major ladning ayrim jihatlarini olib kiradi.



Klassik major-minor garmonik tizimida minorning asosan garmonik turidan foydalaniladi. Shuning uchun, minordagi dominanta akkordlari hamisha majorli ohanggidaeshitiladi, VII- pog‘ona kamaytirilgan uchtovushligi o‘rnigauningsextakkordi ishlatiladi, III- pog‘onadagi orttirilgan uchtovushlik deyarli uchramaydi.

Kamaytirilgan vaorttirilgan uchtovushliklar dissonansdir. Tonikadan tashqari boshqa akkordlar noturg‘undir. Yechilishning umumiy qoidasiga bo‘ysunib, *dissonans akkord konsonansga, noturg‘un akkord turg‘unga yechiladi*, ya’ni turg‘un pog‘onalar o‘z joida qolib, noturg‘unlar tortilishi bo‘yicha qo‘shni turg‘un pog‘onalarga o‘tadi.



2.7. Septakkordlar. Dominantseptakkord

Septakkord - tertsiya bo‘yicha joylashgan to‘rtta tovushdan iborat akkorddir. Septakkordning chekka tovushlari septima intervalini hosil qiladi. Shuning uchun barcha septakkordlar dissonans akkord deb hisoblanadi. Belgilanishi – 7.

Septakkordlar ham tarkibiy intervallari bo‘yicha farqlanadi. Chekka tovushlardagi septimasining sifatiga qarab **katta, kichik, orttirilgan** va **kamaytirilganseptakkord turlari** ajratiladi. Septakkordlarning aniq nomi ular asosida joylashgan uchtovushlik turi va chekka tovushlar orasidagi septimasi sifatidan hosil bo‘ladi. Masalan, majorli uchtovushlik va katta septimadan tuzilgan akkord *katta majorli septakkord* deyiladi; minorli uchtovushlik bilan katta septima – *katta minorli septakkord*ni tashkiletadi; majorli uchtovushlik va kichik septima – *kichik majorli septakkord*ni tashkiletadi va hokazo.

Klassik musiqada keng tarqalgan va ko‘p qo‘llaniladigan septakkordlar bu – kichik majorli, kichik minorli, kichik hamda kamaytirilgan septakkordlardir.

Kichik majorli septakkord majorli uchtovushlik va



chekkatovushlari hosil qiladigan kichik septimadan iborat.

Kichik minorli septakkord minorli uchtovushlik va kichik septimadan iborat.



Kichik septakkord kamaytirilgan uchtovushlik va kichik septimadan iborat.



Kamaytirilgan septakkord kamaytirilgan uchtovushlik va kamaytirilgan



septimadan iborat.

Septakkord uchta aylanmaga ega. Har aylanmaning nomi pastki tovushidan primasigacha va septimasigacha hosil bo‘lagan intervallardan kelib chiqadi.

Birinchi aylanmasi **kvintsextakkord**: pastki tovushi – tertsiyasi, intervallarining ustma-ust joylashish tartibi – tertsiya+tertziya+sekunda;

Ikkinchi aylanmasi **terskvartakkord**:



pastki tovushi – kvintasi, intervalli tarkibi – tertsiya+sekunda+tertziya;

Uchinchi aylanmasi **sekundakkord**: pastki tovushi – septima, intervalli tarkibi – sekunda+tertsiya+tertsiY.

2.8. Dominantseptakkord aylanmalari va echilishi

Musikada juda keng tarqalgan kichik minorli septakkord *tabiiy major va garmonik minorning V- pog'onasida tuziladi*. Bu akkord **dominantseptakkord** deyiladi. Dominantseptakkord laddagi dominanta funktsiyasining asosiy ifodalovchisidir. Belgilanishi – **D₇**, uni tashkil qiladigan pog'onalar – V-, VII-, II-, IV-, intervalli tarkibi – **kat.3+kich.3+kich.3**.

Dominantseptakkordning struktura obertonlar qatorining 4-, 5-, 6-, 7-tovushlariga mos bo'lib, o'zining yangrashi bilan musiqiy tovushlarning akustik xususiyatlarini aks etadi.

Dominantseptakkord dissonans akkorddir. Uning pastki tovushi – ladning



V- pog'onasi, ya'ni Dominanta tovushning o'zi tonikaga intiladi, II- va VII- pog'onalari ham tonika bilan tortilib turadi, IV- pog'onasi

kamaytirilgan kvintaning cho'qqisi sifatida yechilish qoidasiga rioya qilib, pastga III- pog'ona (tonikaning tertsiyatovushi) gao'tishni talab qiladi.

Shuning uchun, dominantseptakkord bevosita tonika akkordiga yechilishi lozim: **V-, VII-, II- pog'onalar I- pog'onaga, IV- pog'ona esa III- pog'onaga yechiladi.**




Natijada prima tovushi uch marta kelgan, kvintasiz, ya'ni to'liqsiz tonika uchtovushligi hosil bo'ladi.

Dominantseptakkord uchta aylanmaga ega.

- 1) **Dominatkvintsektakkord**– (D^6_5) - akkordning tertsiyasidan (VII-) tuziladi, interval tarkibi – **kich.3+kich.3+kat.2**, primasi juftlantirilgan to‘liq tonika uchtovushligiga yechiladi.
- 2) **Dominatterskvartakkord**- (D^4_3) - akkordning kvintasidan (II-) tuziladi, interval tarkibi – **kich.3+kat.2+kat.3**, yoyilgan to‘liq tonika uchtovushligiga yechiladi.
- 3) **Dominatsekundakkord** - (D_2) - akkordning septimasidan (IV-) tuziladi, interval tarkibi – **kat.2+kat.3+kich.3**, primasi juftlantirilgan tonika sekstakkordiga yechiladi.

Dominantseptakkord aylanmalari tonikaga yechilganda primatovushi, ya’niladdagi V-pog‘ona o‘z o‘rnida qoladi, VII-, II-, IV- pog‘onalar qoida bo‘yicha yechiladi.



2.9. Yetakchi septakkordlar VII_7

Yetakchi septakkord dturlari. Ladning VII - ya’ni pastki yetakchi pog‘onasida tuziladigan septakkord **yetakchi septakkord** deyiladi. Yetakchi septakkord ladning dominant guruhiga mansubdir. Belgilanishi – $DVII_7$. Uni tashkil qiladigan pog‘onalar –VII-, II-, IV-, VI-Tabiiymajorda yetakchi septakkordning chekka tovushlari kichik septimani hosil qiladi, uning asosida esa kamaytirilgan uchtovushlik joylashadi. Shuning uchun unga kichik kamaytirilgan yetakchi septakkord, qisqarog‘I **kichik yetakchi septakkord** deyiladi. Kichik yetakchi septakkordning intervalli tarkibi – **kich.3+kich.3.+kat.3**. Tabiiy minorda

yetakchi septakkordning tuzilishi D7 tuzilishiga o'xshaydi. Shu sababdan tabiiy minorda yetakchi septakkord qo'llanilmaydi.


Garmonik major va garmonik minorda esa yetakchi



Septakkordning chekka tovushlari kamaytirilgan septimani hosil qilishi uchun unga ***kamaytirilgan yetakchi septakkord*** deb nom berildi. UkamVII₇ belgilanib, uchta kich.3 dantashkiltopadi.

VII₇-Yetakchi septakkordning yechilishi.

Yetakchi septakkordlar tertsiyasi juftlantirilgan tonika uchtovushligiga yechiladi.



Yetakchi septakkordning bunday tarzda yechilishi ovozlarning parallel kvintalar bo'yicha harakatiga yo'l qo'ymaydigan klassik garmoniya qoidasiga asoslangan. Bu akkord tarkibiga kirgan kvinta intervallari ichkariga yechilishi lozim.



Yetakchi septakkordlarning ham uchta aylanmasi bor.

- 1) ***Yetakchi kvintsextakkord*** – VII⁶₅ - akkordning tertsiyasidan (II-) tuziladi, tertsiyasi juftlantirilgan tonika sekstakkordiga (T₆) yechiladi.

- 2) *Yetakchi tertskvartakkord* – VII^4_3 - akkordning kvintasidan (IV-) tuziladi, tertsiyasi juftlantirilgan tonika sekstakkordiga (T_6) yechiladi.
- 3) *Yetakchi sekundakkord* – VII_2 - akkordning septimasidan (VI-) tuziladi,



tertziyasi juftlantirilgan tonika kvartsektakkordiga (T^6_4) yechiladi.

Yetakchi septakkordlar dominant septakkord va uning aylanmalari orqali ham tonikaga yechilishi mumkin. VII_7 va D_7 uchta umumiy tovushga ega. Bu tovushlar VII-, II-, IV- pog'onalarda joylashadi. Akkordlarning qo'shilish jarayonida umumiy tovushlar o'z o'rnida qoladi, VII_7 ning septima tovushi



(laddagi IV-pog'ona) D_7 ning primasi (laddagi III-pog'ona) ga o'tadi.

Natijada $VII_7 \rightarrow D^6_5$ ga, $VII^6_5 \rightarrow D^4_3$, $VII^4_3 \rightarrow D_2$, $VII_2 \rightarrow D_7$ ga o'tadi.

2.10. II- pogo'na septakkordi (SII_7)

(Subdominantseptakkord)

Ladning yuqorigiyetakchi pog'onasida (II-) tuziladigan septakkord subdominanta guruhiga kiradi va ushbu funksiyasining asosiy septakkordi hisoblanganligi sababidan *subdominantseptakkord* deyiladi. Belgilanishi– SII_7 , uni tashkil qiladigan pog'onalar – II-, IV-, VI-, I-.

Tabiiy majorda tuzilgan subdominant septakkordning intervalli tarkibi – **kich.3+kat.3+kich.3**. Uning chekka tovushlari kichik septimani hosil qiladi, asosida esa minor liuchtovushlik joylashadi. Shuning uchun, uni *kichik minorli subdominantseptakkord* deb ataydi.

Gamonik major va tabiiy minorning II-pogʻonasida *kichik subdominantseptakkord* (asosida kamaytirilgan uchtovushlik) tuziladi. Uning intervalli tarkibi – **kich.3+kich.3+kat.3**.

Subdominantseptakkord ham uchta aylanmaga ega. Ulardan **SII⁶**skoʻproq qoʻllaniladi. **SII⁶₅** - IV-pogʻonadan, **SII⁴₃** - VI-pogʻonadan, **SII₂** - I- pogʻonadan tuziladi.

Subdominantseptakkordning yechilishi:

- 1) Dominanta uchtovushligiga oʻtishi xuddi **D₇→Tonikaga** yechilgandek bajariladi.

i.



- 2) Tonika uchtovushligiga yechilishi – **VII₇→Tonikaga** yechilish qoidasiga asoslanadi. Bu akkordning yechilishida ham Tonika akkordlari juftlantirilgan tertsiya tovushi bilan keladi.



- 3) **D₇** akkordlari orqali tonikaga yechilishi: **SII₇** bilan **D₇** ikkita umumiy tovushga egadir. Akkordlar bogʻlanishida ular oʻz oʻrnida qoladi, qolgan ikkita tovush (VI- va I- pogʻonalar) bir pogʻona pastga tushadi.



D₇, VII₇ va SII₇ akkordlar ladning **bosh septakkordlari** deb hisoblanadi. Ular ladning noturgʻn funktsiyalari yaqqol vakillari boʻlib, bosh septakkordlar sifatida asarlarda tez-tez qoʻllaniladi.